

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI

«Kino, televideniye va radio san'ati» fakulteti

«Pedagogika va psixologiya» kafedrası

KURS ISHI

Mavzu: O'quvchilarning mustaqil ishi va uni tashkil etish usullari

Bajardi: Z.Mirzayeva

Ilmiy rahbar: _____

**Mazkur kurs ishi 2012 yilning
«___» _____ dagi «___» - sonli
yig'ilishda muhokama qilingan va
himoyaga tavsiya qilingan.**

**Kafedra mudiri: p.f.n., dotsent
Kasimova Z.H. _____**

Toshkent – 2012

MUNDARIJA

1. Pedagogika nazariyasida o'quvchilar mustaqil ta'limi muommosining ishlanagnlik darajasi.

2. Kasb ta'limi tizimida o'quvchilar mustaqil ta'limining mazmuni,xususiyatlari va malaka darajalarini aniqlash mezonlari

3. Kasb ta'limi yo'nalishi boyicha o'quvchilarni tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish shakllari

4. O'quvchilarda mustaqil ta'lim olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish metodikasi

Xulosalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati.

Ilovalar.

KIRISH

O'zbekiston respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayotida, ayniqsa, ta'lim sohasida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar asosini tashkil etadi. Mazkur hujjatlarda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimining uzviyligini ta'minlash, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish ko'zda tutilgan.

Kasb-hunar ta'limi umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim tizimi uzviyligini va uzluksizligi ta'min etuvchi bosqich bo'lib, uning rivojlanishi oliy ta'lim muassasalarida kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 4 oktabrdagi «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 400-sonli qarori kasb-hunar kollejlari uchun o'qituvchilar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari zimmasiga muhim vazifalarni yukladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ta'lim tizimi uchun malakali kadrlar tayyorlash borasida respublikamizda katta amaliy ishlar qilinmoqda. Xususan, oliy ta'lim muassasalarida davlat ta'lim standartlariga mos yuqori malakali o'qituvchilar tayyorlash bo'yicha kasb ta'limi fakultetlari, o'qituvchi va rahbar xodimlar malakasini oshirish markazlarining tashkil etilishi va ularning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanishi bunga misol bo'la oladi.

Malakali kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri – bu ta'lim sifati va samaradorligini oshirishdir. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda o'qitishning zamonaviy usullari, shakl va vositalari, o'yin texnologiyalari, muammoli o'qitish, xususan, mustaqil ta'limning noan'anaviy metodlari muhim o'rin tutadi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ta'limi mazmunini ishlab chiqish va uni tashkil etish hamda amalga oshirish usullarini takomillashtirish borasida ilmiy-pedagogik izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2005 yil 21 fevraldagi 34-sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan «Talabalarning mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi» to'g'risidagi namunaviy Nizom asosida amalga oshirilmoqda. Albatta, ko'pgina oliy ta'lim muassasalarida talabalarning nazariy va amaliy mustaqil ta'lim olishlari uchun katta imkoniyatlar mavjud. Biroq hozirgi vaqtda o'quv-tarbiya jarayonida talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish masalasiga dolzarb pedagogik muammo sifatida qaralmaydi, mustaqil ta'lim mazmunini tahlil etish va ishlab chiqishga zamonaviy nuqtai nazardan yondashilmaydi, uning samarali metod, shakl hamda vositalaridan foydalanishga yetarlicha e'tibor berilmaydi. Bu va shunga o'xshash boshqa masalalar oliy ta'lim muassasalari kasb ta'limi fakultetlarida bakalavr o'qituvchilarni tayyorlashda talabalarning mustaqil ta'limini tashkil

etish, amalga oshirish, nazorat qilish borasida qator pedagogik muammolar mavjudligini bildiradi.

Mazkur masalalarni ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan o'rganish, kasb ta'limi jarayonida talabalarning mustaqil ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojini e'tiborga olish va mustaqil ta'lim olishlari uchun yetarli shart-sharoit yaratib berish zarurati; kasb ta'limi o'qituvchilarining talabalar mustaqil ta'lim olishlarini tashkil etish, amalga oshirish va nazorat qilish bo'yicha kasbiy-pedagogik tayyorgarligining zamon talablari darajasida emasligi; bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarida mustaqil ta'lim olish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarining shakllanmaganligi; talabalar mustaqil ta'lim olishlarini tashkil etish, amalga oshirish va nazorat qilishga oid o'quv-metodik adabiyotlar, tavsiyalar, ishlanmalar, yo'riqnomalar, ko'rsatmalarning yetarli emasligi va boshqa muammolar alohida dolzarblik kasb etadi.

1. Pedagogika nazariyasida o'quvchilar mustaqil ta'limi muommosining ishlanganlik darajasi

Mamlakatimizda ta'lim sohasida bo'layotgan o'zgarishlar, ya'ni qabul qilingan qonun va farmoyishlar jamiyatimiz ravnaqiga ijobiy ta'sir qilishi shubhasizdir. Ular mamlakatning intellektual salohiyatini oshirishda, davlat ta'lim standarti talablariga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

«Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi hamda amaliyotga joriy etilishi buning yaqqol misolidir. Ayniqsa, ta'limning o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi bosqichidagi yangiliklar boshqa jarayonlardan o'zining tizimliliigi, izchilligi va uzviyligi bilan ajralib turadi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari jamiyatimizga ijodiy tafakkurga ega, bilim salohiyati yuqori bo'lgan, malakali kichik mutaxassislarni yetkazib berishi kerak. Buning uchun, albatta, kasb-hunar kollejlarda yoshlarga bilim beradigan pedagog va muhandis-pedagoglarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga e'tibor qaratilmog'i kerak.

Oliy ta'lim tizimining birinchi bosqichida ta'lim dasturlari umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzluksizlik va uzviylikni ta'minlagan holda talabaning o'quv rejasidagi fanlar bloklarini (gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy, matematik va tabiiy-ilmii; umumkasbiy ixtisoslik hamda qo'shimcha) o'zlashtirishlarini nazarda tutadi.

Hozirgi kunda kasb-hunar kollejlarda dars beradigan kasb ta'limi yo'nalishi bo'yicha bakalavr-o'qituvchilarni tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etishga, uning samaradorligini ta'minlashga yetarli darajada e'tibor berilmayapti. Kasb ta'limi yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan bo'lajak bakalavr-o'qituvchilarning darsdan bo'sh vaqtlarida o'z kasbiy bilim va malakalarini oshirish ustida shug'ullanmasliklari, kutubxonalarda mustaqil ta'lim olish uchun kerakli adabiyotlarning yetishmasligi, axborot texnologiyalaridan unumli foydalana olmasliklari muammoning dolzarbligini ko'rsatadi. Ushbu muammoni ijobiy hal qilish uchun talabalarning mustaqil ta'lim olishini izchil tizimga keltirish kerak.

Mustaqil ta'lim olish yetuk mutaxassis bo'lib yetishishning muhim omili hisoblanadi. Bu ayniqsa kasbiy tayyorgarlik tizimida yaqqol namayon bo'ladi. Ajdodlarimiz ham yosh avlodning kasb-hunar egallashiga, yetuk, tarbiyali, taraqqiyotga xizmat qiluvchi inson bo'lib yetishishiga ahamiyat berishgan.

Sharqning buyuk allomalari o'z ijodlarida mehnat qilishni, kasb-hunar egallashning ahamiyatini ta'kidlab o'tganlar. Muhammad al Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Farg'oniy, Axmad Yassaviy, Yusuf Xos-Hojib, Shayh Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshbandiy, Abdurahmon Jomiy, Imom al Buxoriy, Axmad Yugnakiy va Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlar mehnatni, kasb-hunarni ulug'laganlar. Bahovuddin Naqshbandiy (1318-1389 yil) buyuk naqshbandiylik ta'limotining asoschisi bo'lib, «Dil ba yor u, dast ba kor», ya'ni «Diling Ollohga, qo'ling mehnatga bo'lsin» deb o'rgatganlar. Buyuk mutafakkir

Alisher Navoiy deyarli har bir asarida hunar o'rganishni, halol mehnatni ulug'laganlar. Jumladan, «Farhod va Shirin» dostonida shunday yozadi: «Hunarni asrabon netkumdir oxir, olib tuproqqamu ketgumdir oxir».

Yuqorida sanab o'tilgan buyuk allomalar o'z hayoti va ijodiy faoliyatlarida kasb-hunar egallashni ulug'lash bilan bir qatorda kasb-hunar egallashda mustaqil ish bajarishning naqadar muhimligi ta'kidlaganlar.

Mustaqil ta'limni tashkil qilishni pedagogik muammo sifatida V.I.Andriyanova, P.T.Magzumov, U.N.Nishonaliyev, N.Sayidahmedov, A.R.Xodjaboyev, Q.P.Husanboyeva, R.K.Choriyev E.I.Zakinov, S.Matchanov, Z.Nishonova, T.Niyazmetova, J.Tolipova, O'.Q.Tolipov, B.M.Turdibayeva, N.Xalilov, SH.Sharipov, SH.Yunusova va boshqalar o'z ishlarida tadqiq qilganlar.

U.N.Nishonaliyev mehnat ta'limi o'qituvchisini tayyorlashning tarixiy taraqqiyoti va shaxsiy xislatlarini; N.Sayidaxmedov talabalarni, umumta'lim maktablari o'quvchilarni unumli mehnatga rahbarlikka tayyorlashni[17]; A.R.Xodjaboyev mehnat ta'limi o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligining o'quv-metodik majmuaviy ta'minotini; Q.P.Husanboyeva adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish kabi muammolar ustida tadqiqotlar olib borganlar[19].

Mustaqil ishlarni bajarish va mustaqil ta'limning ijobiy xususiyatlari olimlardan: V.I.Andriyanovanning o'zbek maktablarining 5-6 sinflarida rus tili darsida mustaqil ish bajarishni o'rgatish,O.B.Berdiyeva geometriya ta'limida o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish metodikasi[8], E.I.Zakinovning 6–8 sinflarda mustaqil ishlarni tashkil qilishning pedagogik asoslari, O'.Q.Tolipovning kasbiy ta'lim tizimida yoshlarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari, SH. Sharipovning talabada ixtirochilik ijodkorligini shakllantirishning pedagogik asoslari [20], SH.Yunusovanning o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini shakllantirish [14], Z.Nishonova, J.Tolipova va N.Xalilovlarning mustaqil ta'lim shakllari haqidagi tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan [21, 11,13].

Pedagog olim S. Matjonovning tadqiqot ishi o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishga bag'ishlangan bo'lib, unda darslarda o'quvchilarning og'zaki va yozma ijodiy ishlarini tashkil etish masalalari tadqiq qilingan. Zero, ma'naviy barkamol avlodni shakllantirishda ijodiy ishlar va mustaqil faoliyat yuritish o'z-o'zidan erkin tafakkurni talab qiladi. Mustaqil tafakkuri, o'z nuqtai nazariga ega bo'lmagan o'quvchi ijodkor bo'la olmaydi, mustaqil faoliyat yuritilmaydi.

T.R.Niyazmetovanning «O'zbek tili va adabiyoti darslarida mustaqil ish bajarish uslubiyati» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida umumiy o'rta ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish yo'llari va uning o'quvchini faollashtirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Garchi tadqiqotda mustaqil fikrlash masalasi yetakchilik qilmasada, o'quvchining mustaqil ishlash faoliyati o'z-o'zidan u yoki bu darajada mustaqil mulohazani talab qilishi ko'zga tashlanadi [21].

Pedagog olimlarning aksariyat qismi mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonini faollashtirish masalasini umumiy muammo sifatida qaraydilar. Jumladan, bu boradagi ishlarning bir qismida talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini tashkil etishga shaxs nuqtai nazaridan yondoshish ko'zga tashlanadi. Bunda u faol, ta'limda, kasbiy mahoratini oshirishda yuqori natijalarga erishishga intiluvchi, pedagoglik kasbini tanlash va egallash ishida jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiquvchi shaxsni shakllantirishda mustaqil ta'lim muhim omil sifatida qaraladi.

Mustaqil ta'lim olishni tashkil etish uchun nafaqat muayyan kasbga yoki faoliyat sohasiga qiziqish, balki ushbu faoliyat turiga layoqatning mavjud bo'lishi ham talab etiladi.

Mustaqil ta'lim shaxsning o'zi tomonidan boshqarilishini e'tiborga olib, bu faoliyat bilan inson erkin holda va istagan vaqtida manbalardan o'zi tanlab, maqsad, vosita, mazmun nuqtai nazaridan foydalanishi mumkin.

Mustaqil bilim olishda avtonomlik bu-o'qitish maqsadlari, tamoyillari, mazmuni, metodi va vositalarni aniqlash va tanlash, ularni qiynalmasdan hamda tashqi ta'sir yordamisiz, amalga oshirish qobiliyatidir [9].

Mustaqil ta'lim bevosita mustaqil fikrlash bilan uzviy bog'liqligi sababli unga berilgan ta'rifni ham keltirib o'tish maqsadga muvofiq: «Mustaqil fikrlash - insonning o'z oldida turgan muammolarni maqsad va vazifalarini belgilagan holda o'z bilimi va hayotiy tajribalariga tayanib, turli yo'l, usul, vositalar yordamida, o'zining intellektual imkoniyatlari darajasida mustaqil ravishda hal qilishdan iborat bo'lgan aqliy faoliyatidir» .

Yoshlarda mustaqil ish bajarish ko'nikmalarini shakllantirishni turli o'quv predmetlarini o'qitishda amalga oshirish mumkin. Masalan matematik olimlar S.I.Demidova va L.O.Denishevalar mustaqil ta'limga quyidagicha ta'rif berganlar:

«O'quvchilarning o'qituvchi tomonidan mustaqil ish mazmuni, mustaqil ishlashni faol tashkil etishga, ularni oldiga quyilgan didaktik maqsadlarni bajarishga yo'naltirilgan va shunga maxsus ajratilgan vaqt tushuniladi. Bilimlarni qidirish, ularni anglab yetish, mustahkamlash, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda rivojlantirish bilimlarini umumlashtirish, tizimlashtirish jarayoni tushuniladi» [19].

Bu ta'rifda faoliyat xususiyatlari: faollik, tizimlilik, maqsadga yo'nalganlik, mustaqillik haqida so'z yuritilgan. Biroq mustaqil ta'limning bir jihati sifatida mustaqillik tilga olingan. Mustaqil tafakkur ta'limning bir qismi bo'lishi mumkin.

Kasb ta'limi yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan bo'lajak bakalavr-o'qituvchilarda mustaqil bilim olishga qiziqish va qobiliyatni pedagogik madaniyatni takomillashtirishga chorlovchi omil sifatida shakllantirish lozim. Muammoni hal etishning muhim omili sifatida kasb ta'limi yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan bo'lajak bakalavr-o'qituvchilardan pedagogik takomillashish, kasbiy bilimlarni chuqurlashtirish va malakasini oshirish talab etiladi.

Talabalar mustaqil ta'lim olishga qiziqish uyg'otuvchi kuch, motiv sabablarga bog'liq holda ular o'z oldilariga mustaqil ta'lim mazmunini tashkil etuvchi maqsad va vazifalarni belgilab oladilar. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Mustaqil faoliyat olib borishda muhim hisoblangan *siyosiy mustaqil ta'lim*, zamonaviy voqelik va ularga bo'lgan munosabat;

2. Tanlagan yo'nalishi bo'yicha faoliyat olib borish, talabaning mustaqil ta'lim olishlarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan tayyorgarlik davridagi *kasbiy mustaqil ta'lim*;

3. O'quv fanlarini yanada chuqurroq o'rganishga, shaxsiy-hayotiy rejalari, *shaxsiy qiziqish asosida yo'naltirilgan mustaqil ta'lim*;

4. O'z iste'dodini va sevimli mashg'ulotlarini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan mustaqil ta'lim.

5. O'z xarakterini tarbiyalashga qaratilgan mustaqil ta'lim.

Kasbiy mustaqil ta'lim shaxsning rivojlanishida asosiy omil bo'lib, uning kelgusi faoliyatida mustaqil ishlay olish xususiyatlarini tavsiflovchi bo'lib xizmat qiladi. Mustaqil ta'lim mazmuni mehnat xarakteriga bevosita emas, balki bilvosita ta'sir etib, mustaqil ta'lim uchun imkoniyat topa olishiga bog'liq bo'ladi. Mustaqil ta'lim talabaning kelgusi faoliyati davomida o'z yo'lini belgilashning vositasi bo'lib, talaba o'z imkoniyatlarini baholay olishiga sabab bo'ladi. Talabada aniq ifodalangan ehtiyoj sezilmasada, biroq har bir insonda albatta, o'zini qoniqtirishga, namoyon etishiga, o'zining mavjudligini namoyon qilishga bo'lgan nobiologik ehtiyoj bo'ladi.

Kasb ta'limi o'qituvchisi o'z bilimini mustaqil oshirish faoliyatini aniq bir maqsadga yo'naltirishi va bu maqsadga erishishi uchun quyidagi shartlarga rioya qilishi kerak.

1. O'z bilimini mustaqil oshirish mazmunini kasb ta'limi o'qituvchisi mutaxassisligi bo'yicha pedagogik amaliyot o'tayotgan ta'lim muassasasining o'quv ustaxonasidagi aniq sharoitlarga, amaliyotning sharoitlari, talablariga moslashtirishi kerak.

2. Kasb ta'limi o'qituvchisi ma'lum maqsad asosida va ma'lum tartibda o'zida quyidagi sifatlarni shakllantirib borishi kerak:

- talabalarning intilishlari, qiziqishlarini chuqur his qilish, tushunish, ularning ma'naviy ehtiyojlarini hisobga olib bilish;

- talabalar bilan emmotsional aloqa o'rnatish, ularning aqliy, axloqiy va amaliy faoliyati tomonlariga faol ta'sir etish.

3. Kasb ta'limi o'qituvchisi umumiy pedagogika, psixologiya, mehnat gigiyenasi va fiziologiyasi, texnika va texnologiya fanlari bo'yicha savollar ro'yxatini mustaqil o'rganib chiqishlari shart.

4. Kasb ta'limi o'qituvchisi o'zining pedagogik mahoratini oshirish ustida ishlash tizimining eng samarali usullari, yo'llarini tanlab olishi, texnologik jarayon va texnik obyektlarni to'g'ri tanlab faoliyat ko'rsatishi kerak.

5. Kasb ta'limi o'qituvchisi aniq sharoitlarni hisobga olgan holda va ularga mos tarzda individual holda yoki jamoa bilan birga o'z bilimini oshirish shakllaridan foydalanishi, amaliy mashqlar bajarishi maqsadga muvofiq.

6. Kasb ta'limi o'qituvchisi o'z bilimlarini oshirishni doimiy ijodiy izlanishlar tarzida tashkil etish ma'lum maqsadga yo'naltirish zarur.

Buning uchun u:

- ijodiy izlanishlar jarayonini boshqarishga moyil bo'lishi;

- ijodiy izlanishlarning samaradorligi o'qituvchining pedagogik, psixologik va nazariy tayyorgarligiga bog'liq bo'lishini esda tutishi lozim.

«Mustaqil ta'lim» – bilimlarni o'zlashtirish tasavvurlarini rivojlantirish tushunchalari, ko'nikma va malakalarini hosil qilish bo'yicha o'quv jarayonining subyektiv maqsadga muvofiq, muntazam, mustaqil hamda avtonom faoliyatni tashkil etish demakdir [9].

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining mustaqil ta'lim olishlarini tashkil etish muammosiga yetarli e'tibor qaratilmaganligi aniqlandi. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'lim olishda foydalaniladigan shakllar, metodlar, vositalar yetarli ilmiy asoslanmaganligi kuzatildi. Mustaqil ta'lim olish bilan mukammal shug'ullanish uchun, eng avvalo, talabada qiziqish, hohish, qobiliyat yetarli darajada shakllangan, mustaqil ishlashga ehtiyoj bo'lishi isbotlandi. Bundan tashqari talabalarining mustaqil ta'lim olishiga qator psixologik omillar ham ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Mustaqil ta'lim olishga ta'sir ko'rsatuvchi ning psixologik omillar haqida dissertatsiyaning keyingi bobida to'xtalib o'tamiz.

Yuqoridagi fikrlar kasb ta'limi o'qituvchisining mustaqil ta'lim olishi yangicha ijodiy tafakkurga ega bo'lgan kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatib turibdi.

2. Kasb ta'limi tizimida talabalar mustaqil ta'limining mazmuni, xususiyatlari va malaka darajalarini aniqlash mezonlari

«Mustaqil ta'lim» tushunchasi pedagogik lug'atlarda o'quv yurtidan tashqari, mustaqil o'rganish tufayli egallanadigan ta'lim turidir, deb ta'riflangan. Ayni vaqtda «mustaqil ta'lim olish», «o'zini tarbiyalash», «mustaqil o'qish» tushunchalaridan sinonimlar sifatida foydalanilmoqda.

Ilmiy tadqiqot natijalari asosida mustaqil ta'limga quyidagicha ta'rif berildi: *mustaqil ta'lim* – o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Mustaqil ishlar didaktik maqsadi, vazifasi, murakkablik darajasi, kimga (individual yoki jamoa uchun) mo'ljallanganligiga qarab, bir-biridan farq qiladi. Mustaqil ta'lim jarayonida tanlangan mavzularning ilmiyligi, tizimliliigi hamda

o'quv materiallarining qiziqarliligi, amaliyot bilan bog'liqligi, fanlararo aloqadorligi, shuningdek beriladigan mustaqil ishlar va topshiriqlarning ijodiy xarakterga egaligi muhimdir. Uning nazariy, amaliy, ilmiy, metodik va pedagogik asoslari tahlil qilini, samarali shakllari, vositalari tanlansa, ijobiy natijalarga erishish mumkin. Bunda o'tiladigan mavzuning amaliyot bilan uzviyligi, ilmiyligi va o'quv materiallarining qiziqarliligi, mavzularning tizimliliigi, topshiriq hamda vazifalarning ko'p qirraliligi, o'zaro bog'liqligi muhim o'rin tutadi. Ammo eng asosiysi, talabalarning mustaqil ravishda ta'lim olish faoliyatini tashkil etishda ularning intilish va qiziqishlariga e'tibor qaratish zarur. Talabalarning egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishini, ular ijtimoiy foydali, targ'ibot-tashviqot ishlarida ishtirok etishini ta'minlash maqsadga muvofiq.

Kasb ta'limi yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarning o'quv faoliyatini kuzatish davomida shu narsa aniqlandiki, ongli qiziqish mustaqil faoliyatga undovchi, qiziqish uyg'otuvchi kuch bo'lib hisoblanadi.

Aynan kasbiy fanlarga ongli qiziqish talabalarda amaliy mashg'ulotlarda mustaqil anglash, tafakkurni shakllantirish va keng, chuqur idrok eta olish jarayonlariga intilishni uyg'otadi. Kasb ta'limi yo'nalishi talabalarining mustaqil ta'limga **motivatsion** muhitlari boshqa manbalar, kasbga bo'lgan qiziqishlari tufayli shakllanadi. Ongli qiziqish – mustaqil faoliyatning eng muhim ko'rsatgichi, yuqori darajasidir. Bu esa fan o'qituvchilari mahoratining darajasiga bog'liqligi o'quvchilarda u yoki bu fan yoki kasb mutaxassisligiga nisbatan qiziqish shakllanadi. O'quvchilar barcha kasb sirlaridan xabardor bo'lishlari uchun vaqt yetishmasada, ularda qiziqishga ilk qadam qo'yishlarida o'qituvchi beradigan ma'lumotlarning ahamiyati kattadir.

Talabalarning mustaqil ta'limiga metodik jihatdan rahbarlik qilishda uni rivojlantirish yo'llarini o'rganib chiqish davr talabidir. Eng barqaror rag'batlantirish usuli bu kasbiy mehnat hamda ishga ijodiy yondashuv faoliyatidir. Yoshlarni turli-tuman amaliy, ijtimoiy, tashkiliy, ijodiy faoliyatga jalb etish ham mustaqil ta'lim samaradorligini oshirish omilidir.

Mustaqil ta'lim jarayoni qanday amalga oshirilishi, uning rivojlanishi, o'zlashtirilgan bilimlar asosida mustaqil ta'lim faoliyati darajalarini quyidagi mezonlar bilan belgilash mumkin:

- maqsadga yo'naltirilgan, motivatsion muhitdagi mustaqil ta'lim;
- mustaqil tafakkur jarayonini ta'minlovchi ko'nikmalar;
- mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishga yo'naltirilgan ko'nikmalar.

Talabalar mustaqil ta'lim olishlari jarayonida qo'shimcha adabiyotlarga murojaat qiladi, o'tilgan mavzularni qayta ko'rib chiqadi. Ko'pgina talabalar uyga berilgan ma'ruza matnlari ustida ishlaydilar, ma'ruzalar, referatlar tayyorlashda ilmiy-ommabop, davriy nashrlardan foydalanadilar.

Pedagogik hamda texnik-texnologik mustaqil ishlarni bajarishda talaba bo'lajak kasbiy faoliyat muammolarini hal etish usullarini egallaydi. Pedagogik hamda texnik-texnologik mustaqil ishlarni bajarishda didaktikada mustaqil

ta'lim darajasini oshiruvchi boshqaruv, rag'batlantirish, tashkil etish va nazorat vositalari sifatida qaraladi.

Talabanning o'quv faoliyatiga nisbatan o'qituvchi tomonidan muayyan talablarning qo'yishi ularning mazmunini boyitadi. Pedagogik hamda texnik-texnologik mustaqil ishlarni bajarishda topshiriqlarning berilish shakli esa oldin o'zlashtirilgan namuna bo'yicha xulosalar chiqarishni ko'zda tutuvchi boshqaruv topshiriqlari va masalalarining bajarilishi sanaladi.

Bizning fikrimizcha, pedagogik hamda texnik-texnologik mustaqil ishlarni bajarishda va masalalarda avtonom holda mustaqil bilim olishga o'tish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Pedagogik hamda texnik-texnologik mustaqil ishlarni bajarishda mustaqil bilim olishni amalga oshirishga imkon beruvchi topshiriqlar to'plamini yaratish uchun asos bo'la oladi.

Pedagogik hamda texnik-texnologik mustaqil ishlarda obyektiv, aniq pedagogik va ishlab chiqarish muammolarini aks ettiradi. O'qituvchi o'rganilayotgan pedagogik hodisalar va ishlab chiqarish jarayonining o'zaro zid xususiyatlarini aks ettirish uchun muammoli vaziyatdan foydalansa, obyektiv muammo o'quv muammosiga aylanadi. Talabalar uchun tushunarli bo'lgan o'quv pedagogik va ishlab chiqarish jarayoni muammolari o'quv topshirig'i sanaladi.

O'quv topshirig'i muammosi fikrlash faoliyatini faollashtirishga imkon beradi, biroq ularning har biri ham ilmiy darajada pedagogik va psixologik tushunchalarni mustaqil shakllantirishga olib kelmaydi. Shu bois pedagogik va texnik-texnologik mustaqil ishlarni ishlab chiqishda o'quv muammolarining didaktik xususiyatlarini hisobga olish zarur. Topshiriq to'g'ri ifoda etilsa, talaba tomonidan ularning qabul qilinishi osonlashadi.

Mustaqil bilim olish nazariyasiga muvofiq pedagogik hamda texnik-texnologik mustaqil ishlarni ishlab chiqish qoidalari quyidagilardan iborat:

- pedagogik hamda texnik-texnologik mustaqil ishlar haqiqiy pedagogik va ishlab chiqarish vaziyatlari bilan bog'liq muammolarga ega bo'lishi kerak;
- mustaqil ishlar asosini tashkil etuvchi muammoni hal etishning turli usullar (tahlil, sintez, taqqoslash, solishtirish, umumlashtirish va boshqalar) yordamida amalga oshirish;
- mustaqil ishlarni bajarish isbotini aniqlash va talabalar ongida, hodisalar va jarayonlar o'rtasida mustahkam bog'liqlikni mustahkamlash asosida tushunchalarni yuzaga keltirish imkoniyatlarini ko'zda tutishi lozim;
- muammoli vaziyatli topshiriqlarni bajarishning yaxlit ifodalangan yoki ifodasi topshiriq shartlarini tashkil etuvchi bir necha oddiy tushunchalardan subyekt tomonidan hali o'zlashtirilmagan yanada murakkabroq tushunchani keltirib chiqarish imkonini beradi;
- muammoli vaziyatli topshiriqlarni bajarish jarayonida oddiy tushunchalar yoki subyektga ma'lum bo'lmagan tushunchalar bir-biri bilan taqqoslanadi;
- tushunchalarni taqqoslashda subyekt fikrlashning turli: tahlil, sintez, solishtirish, taqqoslash, texnik obyektlar orasidagi umumiylik, tipiklik va xususiylikni topish amallarini bajaradi;

- muammoli vaziyatli topshiriqlarni bajarishda subyekt quyidagi amallarni bajaradi:
- tushunchalarning shakli va mazmunini o'zgartirmasdan qayta ishlab chiqadi;
- tushunchalar shaklini o'zgartirib, ularni qayta ishlab chiqadi;
- ilgari o'zlashtirilgan tushunchalarni rasmiy-mantiqiy fikrlash usullaridan foydalanib, qayta o'zgartiradi;
- nazariy fikrlash asosida yangi tushunchalarni shakllantiradi [10].

Pedagogik hamda texnik-texnologik mustaqil ishlar odatda talabalar e'tiboriga darhol hal etish mumkin bo'lgan masala ko'rinishida havola etiladi. Pedagogik hamda texnik-texnologik mustaqil ishlar mazmunida ko'pincha, amaliy hayotda uchrab turadigan muammo aks ettirilgan bo'ladi. Talabalar ularni shunday qayta ifodalashlari kerakki, mavjud tajribalarga tayanib, yechimga erishish imkonini beruvchi shartlarni real vaziyatdan ajratib olsinlar.

Agarda o'qituvchi tomonidan masalaga aylantirilgan o'quv topshiriqlarini bajarish jarayonida talaba yechim yo'lini topa olmasa, u holda u aniq vaziyatga duch kelib, ushbu vaziyatni pedagogik va ishlab chiqarish jarayoni muammosining yechimini izlashga imkon beruvchi holatga aylantira olmaydi. Masalani yechish ma'lum didaktik vazifalarga qat'iy amal qilishni taqozo etadi. Masala shartlari avvaldan tuzuvchi tomonidan belgilab quyilganda, talabadan vaziyatni qayta o'zgartirish malakasini namoyish qilish talab etilmaydi. Shu bois talabalar bilimlarini boshqa vaziyatga ko'chirish va ularni amalda qo'llashda qiyinchiliklar his etadilar.

Mustaqil bilim olishda ko'pincha shartlari ifoda etilmagan topshiriqlarni bajarishga to'g'ri keladi. Talaba masalani yechar ekan, shartlarni o'zgartirish tartibi bilan tanishadi, aniq bir muammoni tahlil qilish va o'quv-pedagogik yoki texnik-texnologik masalani bajarishda mavjud ko'nikma hamda malakalardan foydalanadi.

Bunday pedagogik hamda texnik-texnologik mustaqil ishlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Shartlari ifoda etilgan, biroq yechish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlar berilmagan masalalar. Ular nazariy va amaliy masalalar tarzida ikki guruhga ajratiladi. Amaliy masalalar haqiqiy pedagogik va ishlab chiqarish jarayoni bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Bunday masalalarni yechishda faqatgina aqliy faoliyat, bilim, malaka va ko'nikmalargina emas, balki sensor hamda harakatlar faolligiga erishish talab etiladi. Bu masalalar mustaqil bilim olish texnologiyalarining amaliyot bilan uzviylikni ta'minlashga yordam beradi.

2. O'zlashtirilmagan bilim, harakat va operatsiyalarga duch kelinmaydigan masalalar. Mazkur masalalar avval o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, ularni yangi vaziyatlarda qo'llash, fikrlash malaka va ko'nikmalarini egallash hamda mavjud bilimlarni mustahkamlash uchun mo'ljallangan.

3. Savollar – yangi bilimlarni qabul qilish va o'zlashtirishga tayyorlikni aniqlovchi vosita. Savollarda quyidagi ikki jihat ko'zga tashlanadi: mavjud bilimlarni tekshirish va mustaqil xulosaga kelishga yo'naltirish. Savollar reproduktiv va produktiv tarzida ikki guruhga bo'linadi. Reproductiv savollar

xotirani mustahkamlash, produktiv savollar esa fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ular subyektlarga aqliy harakatlarni o'zlashtirishga yordam beradi, shuningdek, tahlil, sintez, taqqoslash, solishtirish, umumlashtirish, muhimini ajratish, mustaqil ravishda xulosalarga kelish va amaliy qarorlarni qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Talabalar pedagogik hamda texnik-texnologik mustaqil ishlar yordamida pedagogik hodisalar, texnik obyektlar, texnologik jarayonlar o'rtasidagi turli xususiyat va bog'liqliklarini aniqlaydilar (tahlil va umumlashtirish ko'rinishidagi harakatlarni amalga oshiradilar), ularni o'zaro solishtiradilar, taqqoslaydilar, bu hodisa, jarayon va obyektlarning umumiyligi hamda o'ziga xos muhim xususiyatlarini ko'rsatadilar. O'quv topshiriqlari asta-sekin murakkablashtirib boriladi. Eng yaxshi tayyorgarlikka ega bo'lgan iqtidorli talabalar ijodiy va izlanish xususiyatiga ega bo'lgan murakkab topshiriqlarni bajaradilar. Kamroq tayyorgarlikka ega bo'lgan talabalar, soddaroq topshiriqlarni bajaradilar, biroq shunga qaramay, topshiriqlar ustida ishlash ularga umumiy masalani hal etishda guruh bilan birga ishlashga imkon beradi. Murakkab topshiriqlarni bajarish ba'zi talabalarga pedagogik-psixologik va texnik-texnologik tushunchalarini ilmiy darajada darhol o'zlashtirish imkonini beradi[10].

Bunday talabalar uchun faoliyat ko'rsatish, rivojlanish, mustaqil faoliyatga maqsadli yo'nalganlik, tizimli ravishda ish yuritish, o'quv faniga va mustaqil ishga qiziqish, takomillashtirilgan metodik qo'llanmalar asosida bilimlarini chuqurlashtirishga intilish xususiyatlari xos bo'ladi. Talabalar ko'pincha darslikda berilgan materialni ongli o'zlashtirmay, faqat yodda saqlab qoladilar va o'qituvchiga so'zlab beradilar. Bunday talabalar kasbiy faoliyatda ham faqat topshiriq asosida ishlashga o'rganib qoladilar. Ular berilgan «Namuna» asosidagina ish yuritadilar. Natijada faol mustaqil tafakkurga ega bo'lishga intilmaydilar. Bu quyidagi xulosalarda ifodalanadi: o'qituvchi ularga murakkab materialni tushuntirib beradi va talaba tayyor material asosida ish ko'radi, biroq undan murakkabroq material ustida ishlamaydi. O'qituvchi kitobda yozilgandan ko'ra talabalarning mustaqil ishlashlari uchun oddiyroq, tushunarliroq tilda tushuntirib beradi.

Mustaqil ta'lim faoliyatining birinchi bosqichida fanlarga bo'lgan qiziqish asosiy manba bo'ladi. Biroq bu qiziqish yetarli darajada qat'iy va chuqur bo'lmaydi. Bunda ham maqsadga yo'naltirilgan, tizimli, maxsus tashkiliy, mustaqil ta'lim faoliyati mavjud emas. Faqat kitoblar o'qish, maxsus ma'ruzalar tinglash, mustaqil tafakkur faoliyatiga intilish bo'ladi. Shaxsning mustaqil ta'lim olish faoliyatiga qiziqishlari ham mujassamlashmagan, u ham ko'plab qo'shimcha, keng miqyosli ishlarni amalga oshiradi, biroq ularni uzviy ravishda emas, balki ba'zan va chuqur bilimga ega bo'lmay amalga oshiradi.

Mustaqil ta'lim faoliyatining ikkinchi bosqichida talabalar mustaqil (albatta, nisbatan) o'z oldiga maqsad va vazifalar qo'yib, mustaqil faoliyat mazmunini anglab, tashkiliy ishlarni amalga oshirib boradilar. Bu davrda talabalar shaxsiy – hayotiy rejalar, g'oyalarni amalga oshirish vositasi sifatida

kasbiy vazifalarni hal etadilar. Ikkinchi bosqichda ularning mustaqil faoliyat qiziqishlari jiddiylashadi, fanning alohida qismini o'rganish, bu orqali o'z hayotiy rejalarini tuzish, biror kasbni egallashga bo'lgan qat'iy istak asosiy o'rin tutadi. Ongli ravishda ko'shimcha faoliyat bilan shug'ullanadi, o'z g'oyalarini amalga oshirish vositasiga aylangan mustaqil ta'lim bilan shug'ullanishga intilish paydo bo'ladi. Mustaqil ta'limni ongli ravishda tashkil etadi.

Mustaqil ta'lim faoliyatining uchinchi bosqichida talabalar mustaqil ta'lim bilan bir necha yil shug'ullanib, o'z kasbiy maqsadlari, faoliyati yo'nalishlarini vazifalarini aniq belgilash malakasiga ega bo'ladilar.

Mustaqil bilim olish darajasini baholash o'z-o'zini baholash va o'qituvchi tomonidan baholash asosida qiyoslanadi.

Talabalarni mustaqil ishga tayyorlashda o'qituvchilarning roli ayniqsa katta bo'ladi. O'qituvchi mustaqil ish mavzusini talabaning imkoniyatiga, bilim darajasiga moslab, unda shu ishga nisbatan qiziqish uyg'otadigan va mustaqil fikr yuritishga majbur qiladigan qilib belgilashi lozim. Bu ishni bajarish uchun zarur bo'ladigan barcha ma'lumotlarni metodik qo'llanmalarni berishi va ishni bajarish tartibi kerak bo'lganda savol – javoblar uyushtirishni, maslahatlar berish va shu mavzular bo'yicha ekskursiyalar tashkil qilish zarur.

O'qituvchi tayyorlash o'quv rejasiga kiritilgan ta'lim dasturlarida talabalarning o'quv fanlariga oid bir qancha masalalar va muammolar bo'yicha mustaqil bilim olishlari nazarda tutilgan. Barcha yo'nalishdagi bakalavr-o'qituvchi tayyorlash o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 soat qilib belgilangan. Shundan auditoriya o'quv ishlari hajmi haftasiga 28 soat, qolgan qismi, ya'ni 26 soati auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lim olishga qaratilgan. Kasb ta'limi yo'nalishida bo'yicha bakalavr-o'qituvchilar tayyorlash uchun belgilangan o'quv yuklamasining umumiy hajmi 7344 soatni, shundan mustaqil ish soatlari 2992 soatni tashkil qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, bakalavr darajasidagi kadrlarni tayyorlash uchun o'quv rejasida belgilangan yuklamaning 48 % hajmi mustaqil ta'lim olishga qaratilgan. Mustaqil ishlarni bajarishda talabalar fanlararo bog'lanishni hisobga olib, o'quv adabiyotlarini tanlaydi, ulardan kerakli ma'lumotlarni yozib oladi, ularni tahlil qilib, mustaqil ishning mazmunini o'rganadi va shu ish bo'yicha tushunchaga ega bo'ladi. Berilgan masalaning bir qismini auditoriyadan tashqarida (kutubxona, laboratoriya xonasi va boshqalar) ham mustaqil ishlashga ruxsat etiladi. Mustaqil ish dasturini belgilashda o'tilgan mavzularning takrorlanishiga yo'l qo'yilmagan holda talaba uchun ilmiy, amaliy jihatdan muhim, o'rgangan hamda o'rganayotgan bilimlaridan ijodiy foydalanish mumkin bo'lgan savollar va masalalar qo'yiladi.

O'quv dasturining bo'limi bo'yicha talabalarning mustaqil tayyorgarligi tugagach, fikr almashish maqsadida ular o'qib o'rgangan adabiyotlarda qiziqarli masalalar o'rta tashlanadi. Berilgan masala bo'yicha fikrlashuv va tortishuvda faol ishtirok etgan talabalarni o'qituvchi baholaydi.

Ilmiy pedagogik adabiyotlarda mustaqil ishlarning quyidagi to'rtta turi qayd etib o'tiladi: namunalar bo'yicha bajariladigan mustaqil ishlar,

rekonstruktiv-variantiv, evristik (qisman ijodiy), ijodiy tadqiqot xarakteridagi mustaqil ishlar. Ammo ularda yuqorida qayd etilgan mustaqil ishlar natijasini tekshirib ko'rish, tahlil etish, sintez qilish, baholash, xulosa chiqarish haqida so'z yuritilmaydi. Bizningcha, mustaqil ijodiy tadqiqot natijalarini tahlil etish va sintez qilish ham muhim pedagogik ahamiyatga ega. Uni mazmunan tarkib toptirish bilan birga talabalarning o'z ishlarini o'zlari tekshirishlari hamda nazorat qilishlari mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirishda yaxshi samara berishi aniqlandi. Ularning mohiyati quyidagicha tavsiflanadi:

- namunalar bo'yicha mustaqil ishlarda tipik vazifalar amalga oshiriladi, ya'ni turli mashqlar, amaliy ishlar namunalar asosida bajariladi. Namunalar bo'yicha bajariladigan mustaqil ishlar o'quv materiallarini o'zlashtirishga omil bo'ladi, lekin talabalar ijodiy faolligini rivojlantirmaydi;

- rekonstruktiv-variantiv mustaqil ishlar nafaqat bilimlarning amaliy tavsifnomasini, balki bilimlar mazmunini qayta ishlab chiqishni, masala yoki muammoni yechishda ulardan amaliy foydalanishni taqozo etadi;

- evristik (qisman ijodiy) mustaqil ishlarda ma'ruza, laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar, seminarlarda qo'yilgan muammolar hal qilinadi;

- ijodiy tadqiqot ishlarida talaba masalani hal qilish yo'llarini mustaqil qidiradi va tadqiq etadi. Bunday ishlar qatoriga tajriba-sinov ishlarini o'tkazish, jihozlar, modellar, maketlar va dastgohlarni loyihalash bilan bog'liq bo'lgan vazifalar kiradi. Ijodiy tadqiqot xarakteridagi mustaqil ishlar talabalarda muammoni ko'ra bilish malakasini shakllantiradi va natijada ular muammoni mustaqil ifodalay oladi va uni hal etish rejasini ishlab chiqadi.

Biz tadqiqot jarayonida ijodiy tadqiqot xarakteridagi mustaqil ishlar natijalarini tahlil etish va sintez qilish asosida umumlashtirishni ham mustaqil ish turi sifatida qarab o'tdik.

Ijodiy tadqiqot natijalarini tahlil etish va sintez qilish orqali talaba o'z-o'zini tanqidiy nazorat qilgan holda egallangan bilim, ko'nikma va malaka elementlarini o'rganib, maqsadiga qay darajada erishganini aniqlaydi. Mustaqil ishlash samaralari haqida xulosalar chiqaradi.

Kasb ta'limi yo'nalishi talabalarining mustaqil ta'lim olish faoliyati bilim olish jarayonlarini va amaliy faoliyat olib borishni, texnologik jarayon hamda texnik obyektlarni tanlash jarayonini, ijodiy fikrlash jarayonlarini jadallashtiradi, yuksak aqliy rivojlanishning asosiy sharti sifatida mustaqil va faol fikrlashni shakllantiradi.

Kasb ta'limi yo'nalishi bo'yicha bakalavr-o'qituvchilar tayyorlashda mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish quyidagi yo'llar asosida tartibga keltirildi:

- o'quv faoliyatida inson obyektiv borliqni o'rganishda, o'zining hayotiy tajribasini boyitishda, tabiatga ta'sir ko'rsatish vositalarini bilib olishda, shu bilan bir vaqtda, o'zining qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam beruvchi idrok etish malakasi muhim ahamiyat kasb etadi.

- talabalar amaliy faoliyati jarayonida kerakli bilim, ko'nikma va malakalar egallashlari, bu jarayonda o'qituvchi kuzatishga, o'z kuzatishlarini

tajribalar yo'li bilan tekshirishga, o'quv adabiyoti bilan ishlashga, fan ma'lumotlaridan kundalik hayotida foydalanishga o'rganadi.

Kasb ta'limi metodlaridan talabalarda mustaqil ta'lim olish malakasi shakllanganlik darajasini aniqlashda foydalanish maqsadga muvofiq.

Ularni shartli ravishda quyidagi nomlar bilan atash mumkin:

1. O'quv materiallarini o'rganishda va mustaqil ish jarayonini tashkil etishda umumiydan tipiklikni va xususiylikni ajratib olish malakasi (ajrata olish malaka).

2. Mustaqil ish bajarilishi jarayonida texnologik jarayonlarni va texnik obyektlarni tanlash, amaliy bajarish, texnik chizmalar, sxemalar tuzish malakasi (tuzish malakasi).

3. Auditoriyada, auditoriyadan tashqarida, o'quv ustaxonasida va uyda mustaqil ishlarni samarali tashkil etish malakasi (tashkil etish malakasi).

4. Mustaqil fikrlash malakasi (fikrlash malakasi).

5. Materialni o'rganishda o'z-o'zini nazorat qilish malakasi (nazorat qilish malakasi).

1.2-jadvalda talabalarining mustaqil faoliyat olib borish malaka va ko'nikmalarini egallash ko'rsatkichlari keltirilgan. Talabalarining auditoriyadagi va auditoriyadan tashqari mustaqil ishlash shakllari hamda talabalarining mustaqil faoliyati ko'rsatkichlari asosida ularda mustaqil ishlash ko'nikma, malakalarining rivojlanganlik darajalari dinamikasi ishlab chiqildi.

Ushbu jadvalda mustaqil ta'lim olish darajalariga erishishda talabalar tomonidan qanday ko'rsatkichlarga ega bo'lishlari lozimligi keltirib o'tilgan.

Kasb ta'limi yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarini mustaqil ishlash malakalariga o'rgatish turli usullar bilan amalga oshirilishi mumkin.

1. Talabalarga texnik masalani, misolni yechish namunasi beriladi, ular bilan tanishgandan so'ng talabalar mustaqil yoki jamoa bo'lib, shunga o'xshash masalani yechadilar. Ularga amaliy ish bajarishning texnologik xaritasi beriladi, talabalar xarita asosida mustaqil holda faoliyat bilan shug'ullanadilar. To'plangan tajribalari asosida talabalarining umumiy faoliyati rejasini tuzish, ya'ni masalani yechish va amaliy mashqlarni bajarish tartiblarini foydalanadigan usullarni ko'rsatishlari taklif etiladi.

2. Talabalarga texnik masalani yechishning tayyor yo'riqnomasi (reja yoki algoritmi), amaliy ish bajarish bosqichlari, uni qo'llash namunasi va mustaqil ish uchun topshiriqlar beriladi. Bajarish jarayonida topshiriqning eng qiyin bosqichlari jamoa bo'lib o'rganiladi.

3. Talabalarga mavzulardan biri bo'yicha masalani yechish yoki texnik-ijodiy mashq bajarish rejasi beriladi. Uning amaliyotda qo'llanilishini mashq qilib, talabalar boshqa mavzuga o'tadilar, buning uchun ularga avval bajarilgan mashqlardan namuna sifatida foydalangan holda reja tuzish taklif etiladi.

4. Talabalarga mustaqil ishning umumiy rejasi va uni aniqlashtirish metodi beriladi. Ular aniq bir mavzuni bajarishga kirishib, mashg'ulot mavzusiga binoan umumiy rejaning dastlabki ko'rinishini tuzadilar, keyin

texnik masalani yechish yoki amaliy mashq bajarish jarayonida uni mustahkamlaydilar.

5. Talabalarga berilgan mavzu, bo‘lim bo‘yicha aniq tarzda masalani yechishni yoki amaliy mashq bajarish jarayonini qanday rejalashtirishga oid tushunchalar beriladi. Tuzilgan rejalar keyinchalik talabalar tomonidan mustaqil ish bajarish jarayonida foydalaniladi.

3. Kasb ta'limi yo'nalishi bo'yicha bakalavr-o'qituvchilarni tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish shakllari

Kasb ta'limida mustaqil ta'lim olishning eng maqbul shakllarini tanlash, ulardan foydalanishning adekvat usullarini qo'llash talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda, ularning amaliy faoliyat jarayonida mustaqil, ijodiy topshiriqlarni samarali bajarishlariga olib keladi.

Mustaqil ta'limni tashkil etish shakllari ta'lim jarayonining har bir bosqichida namoyon bo'lsa-da, biz asosan kasb ta'limi yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarning auditoriyadagi va auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ta'lim olish shakllarini ilmiy asoslashga harakat qildik.

a) auditoriyada tashkil etiladigan mustaqil ta'lim shakllari:

1a-shakl - ma'ruza tinglash va bayon etilganlarni daftarga qayd etish;

2a-shakl - amaliy va laboratoriya ishlarni bajarish;

3a-shakl - chizmalar va sxemalarni o'qish, chizishni o'rganish;

4a-shakl - texnik modellashtirish va loyihalash.

b) auditoriyadan tashqarida tashkil etiladigan mustaqil ta'lim shakllari:

1b-shakl - o'quv adabiyotlari bilan ishlash;

2b-shakl - nazorat ishlariga tayyorlanish;

3b-shakl - ma'ruza tayyorlash;

4b-shakl - masofaviy ta'lim texnologiyasi.

Quyida *auditoriyada tashkil etiladigan mustaqil ta'lim shakllarining mazmuni* haqida qisqacha to'htalib o'tiladi.

1a-shakl. Ma'ruza tinglash va bayon etilganlarni daftarga qayd etish. Kasb ta'limi fanlaridan ma'ruzani tinglash, uni daftarda qayd etish jarayonida ma'ruza manbalari varaqning bir tarafiga, ikkinchi tarafiga joy qoldirilgan holda yoziladi.

Ikkinchi tarafiga esa talaba tomonidan chiqarilgan xulosalar, texnik yechimlar, mulohazalar, ularda paydo bo'lgan savollar, savollarga javob variantlari, faktlarni yozish va xar xil belgilarni qo'yish tavsiya etiladi. Shuning uchun ba'zan keng hoshiyalar qoldiriladi.

Talabalar ma'ruzani to'liq va batafsil yozishlari shart emas. O'z navbatida, ko'pchilik o'qituvchilar o'quv adabiyotlarida berilgandan farq qiluvchi asosiy holatlar, xulosa, meyorlar hamda mezonlar, texnologik jarayonlar, texnik obyektlar, amaliy ish bajarish yo'riqnomalari, aksioma, qoida, konsepsiya, holatlarni yozdirib borishadi.

Kirish ma'ruzalarini tinglash davrida daftarda atayin bo'sh qoldirilgan joy-hoshiyalarda talabalar o'zlarida qiziqish uyg'otgan savollarni, texnologik jarayonlar va texnik obyektlar haqidagi ma'lumotlarni, savol-javob variantlarini yozib olishi, fikr-mulohazalarni izohlashi, o'qituvchi-talabalar o'rtasida suhbat hamda dialoglar, mulohazalarni qayd etishlari kerak.

Talabalar ma'ruza tinglashdan oldin unga tayyorgarlik ko'rishlari lozim. Bunda umumiy o'quv reja bilan tanishib, oldingi darslardagi ma'ruza qaydlarini ko'zdan kechirish, manbalarni fikran takrorlash uchun o'zlarini psixologik tayyorlashlari kerak bo'ladi.

Ma'ruza tinglash – intellektual faoliyatning murakkab turidir. Uning muvaffaqiyati, birinchidan, umumiy «tinglay olish» bilan, ikkinchidan, daftarga yozib borish va ayni vaqtda o'quv material mazmunini o'zlashtirib borish bilan bog'liq. Ma'ruzani yozib olish undagi asosiy jihatlariga e'tibor qaratishga, ma'ruza jarayonida eshitilgan ma'lumotlarni o'ylab ko'rishga, o'qituvchi tomonidan izohlanayotgan material ketma-ketligini mantiqiy nuqtai nazardan tushunishga yordam beradi.

Bunday usul, ayniqsa, o'quv yili boshlarida talabalarga bir oz qiyinlik qilishi va shu sababli ular ba'zi xatolarga yo'l qo'yishlari mumkin: ba'zi talabalar ma'ruzani so'zma-so'z yozib olishga harakat qiladi, ba'zilar duch kelgan joydan yozib ketaveradi va hokazo. Bunday xatolarga yo'l qo'ymasliklari uchun bir necha qoidalarga amal qilishlari maqsadga muvofiq:

1) mavzu, maqsad, ma'ruza rejasi, foydalanilgan adabiyotlar berilgandan keyin ularning qanday izoh etilishi, ketma-ketligi, qanday ifoda etilishi, mulohazalarning mazmun-mohiyatini nazardan qochirmaslik;

2) asosiy ma'lumotlarni mustaqil ko'rib chiqish uchun o'qituvchi bergan savollarni yozib olish;

3) yozuvlarning aniq bo'lishiga ularning ketma-ketligiga, mavzu, paragraf savollarini ajratib yozish, unda tagiga chizish usuli va belgilashdan, harflar va raqamlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Mustaqil o'rganishda ma'ruzani umumlashtiruvchi turli xildagi vazifalarni bajarish asosiy o'rinni egallaydi. Masalan, mavzuga doir reja yoki tezis tuzish, texnologik jarayonlarni loyihalash, texnik obyektlarni tanlash, savollarga javob berish, testlar ishlab chiqish, referat yozish mumkin.

2a – shakl. Amaliy va laboratoriya ishlarini bajarish. Amaliy mashg'ulotlar talabada texnik bilimni mustahkamlashga, ularni yangi vaziyatga ko'chirib, amaliy masala hamda vaziyatlarni hal qilish uchun umum-pedagogik tushunchalar va asosiy pedagogik malakalarni rivojlantirishga qaratiladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- texnologik topshiriqlarni bajarish;
- pedagogik-texnologik vaziyatlar ishlab chiqish;
- umumlashtiruvchi texnik-sxemalarni modellashtirish;
- kerakli ma'lumotlarni topish;
- mustaqil (qo'shimcha) bilim olish.

Laboratoriya mashg'ulotlarining asosiy mohiyati shundaki, unda talabalar mustaqil ravishda mavzuga oid turli topshiriqlarni bajaradilar yoki tajriba o'tkazadilar.

Amaliy mashg'ulot o'tkazish shakllari: turli xil pedagogik-texnologik vaziyatlarni loyihalash, pedagogik-texnik masalalarni hal etish, topshiriqlar bajarish, texnik-sxemalar bilan ishlash, o'qituvchilar bilan bahs-munozaralarda ishtirok etish.

Amaliy va laboratoriya ishlarida talabalarning asosiy ish faoliyati texnologik mashqlar hisoblanadi.

Texnologik mashqlar amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlash maqsadida muayyan xatti-harakatlarni ko'p marta takrorlashdan iborat. Ishlab chiqarish ta'limida mashqlarni bajarishda asosan quyidagi talablar qo'yiladi: texnologik mashqlarni talabalar ongli va maqsadga muvofiq yo'sinda bajarishlari; mashqda ishlab chiqarish metodikasiga asoslanishi, mashqlar tizimli, izchil, uzluksiz bo'lishi hamda takrorlanishi; talabalar mustaqil ishlashi va malakasi muntazam rivojlanib borishi kerak.

Texnologik mashqlarga ta'lim metodi sifatida qator didaktik talablar qo'yiladi:

- texnologik mashqlar talabalarning ongli faoliyatiga asoslanadi. Amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilishda ong muhim o'rin tutadi;

- texnologik mashqlar va ularning elementlari osondan murakkabga boradigan tartibda joylashtiriladi. Turli mehnat jarayonlarida bir xil element usullari, aynan o'xshash harakatlar ko'p uchraydi, ammo jarayonlarning o'zi bir oz qiyinligi bo'yicha farq qiladi;

- texnologik mashqlarni bajarish vaqtida o'quvchilar o'z mehnat harakatlarini nazorat qilishlari kerak. Bunda dastlabki tayyorgarlikning to'g'riligiga katta ahamiyat beriladi [9].

Texnologik mashqlar bajarish o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlaydigan o'quv jarayoni hisoblanadi. Bu mashqlar har bir umumkasbiy va ixtisoslik fanlarida o'ziga xos mazmunga ega bo'ladi. Texnologik mashqlar bajarish jarayonida talaba faol ish-harakatini bajaradi va bunda uning barcha sezgi a'zolari ishtirok etadi. Uning eslab qolish darajasi ortishi uchun pedagogik imkoniyatlar yanada kengayadi. Texnologik mashqlar bajarish jarayonida o'qituvchi va talaba faoliyati hamda zarur vositalar 2.1- jadvalda keltirilgan.

Texnologik mashqlar turlari: o'qish, yozish, so'zlash, fikrlash, hisoblash, amaliy harakatlar bajarish, qurish-yasash, bo'yash, musiqa chalish, misol-masala va testlar yechish, kompyuterda ishlash, asboblarni, stanoklar, boshqa texnika vositalari bilan dalada, fermada, qurilishda ishlash, uy-ro'zg'or ishlarini bajarish va sport mashqlari, ishbilarmonlik o'yinlari, musobaqa, ko'rik tanlovlarda ishtirok etish.

3a – shakl. Chizmalar, sxemalarni o‘qish va chizish. Kasb ta’limi yo‘nalishida umumkasbiy va ixtisoslik fanlari texnikaviy asoslarga ega bo‘lganligi sababli chizmalarni o‘qish, sxemalar chizish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarga chizmalarni o‘qish va chizishni o‘rgatish uchun dastlab ularni grafik elementlari bilan tanishtirish, ularda chizmalarni o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish lozim. Mashg‘ulotlarda texnik hujjatlar sifatida texnik rasmlar, eskizlar va ish chizmalaridan foydalaniladi.

Chizmalarni o‘qishga o‘rgatishning ikki usuli ma’lum. Birinchi usulda chizmaga talabalar javob qaytarishi lozim bo‘lgan savollar ro‘yxati ilova etiladi. Savollar talaba javob topishi uchun chizmani o‘rganishga, uni tahlil qilishga majbur bo‘ladigan yo‘sinda tuziladi. Ikkinchi usul esa muayyan tartib va reja asosida chizmani o‘rganishlari hamda uning mazmunini tahlil qilishlariga asoslangan bo‘lib, bu ish quyidagi bosqichlardan iborat:

- chizma bilan umumiy tanishish;
- detalning asosiy yozuvi va gabarit o‘lchamlarini; detalning nomi, materiali, tasvir masshtabi, gabarit o‘lchamlarini o‘qish;
- tasvirlarni; tasvir tasnifini, detalning umumiy shakli, detal elementlarining shakllarini o‘qish;
- o‘lchamlar, shartli belgilar va yozuvlarni; o‘lchamlar va ularning o‘zgarishi chegaralarini, yuzalarning g‘adir-budurligini, texnik talablar hamda ko‘rsatmalarni o‘qish;
- kompyuterda berilgan murakkab chizmalarining kerakli qismini yaqqol tasvirda ko‘ra bilish, harakat va animatsiyalarni qo‘llagan holda detalning tuzilishini o‘rganish.

Chizmada tasvirlarni o‘qish ishning eng murakkab qismidir. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, talabalar uchun detal elementlari shakllarini tushunish detal shaklini tushunishga nisbatan ancha murakkabdir. Talabalar detal elementlarining shaklini to‘liq va to‘g‘ri tasavvur etishlari uchun ularga chizmani muayyan tizimda tayyorlashni o‘rgatish zarur.

Talabalar chizmani o‘qish malakalarini o‘zlashtirishda chizmachilikda qabul qilingan shartli belgilar bilan ham tanishishlari kerak. Bu chizmalar tuzishni o‘rganishda juda zarur.

Ustaxonalardagi mashg‘ulotlarda chizmalarni chizish odatda eskiz chizishdan iborat bo‘ladi. Chizmalarni chizishni o‘rganish sodda topshiriqlarni bajarishdan, chunonchi, detallarni o‘lchash va bu o‘lchamlarni tayyor chizmaga qo‘yib chiqishdan boshlanadi. Chizmalar chizishni o‘rgatishning bu usuli samarali bo‘lishi uchun ishlov berish natijasida detalning shakli o‘zgarishi sababli chizmaga qo‘shimchalar kiritish, masalan, unda parmalangan o‘yiq va boshqa o‘zgarishlarni aks ettirishni tavsiya qilish lozim. Keyingi topshiriqlarda talabalar oldiga sodda detal va uning chizmasi bilan tanishish, so‘ng mustaqil holda shunday tipdagi detalning chizmasini chizish vazifasi qo‘yiladi.

Bunday topshiriqlar ta’limiy xarakterga ega bo‘lgani sababli ularni bajarishga ko‘p to‘xtalmaslik kerak. Talabalar amaliy ishda foydalaniladigan

chizmalarni tuzishlari natijasida, ularning faolligi va mehnat topshiriqlariga qiziqishlari ortadi.

Bu chizmalar, ayniqsa, modellashtirish jarayonida zarurdir, biroq bunda talabalar grafika hamda loyihalash bo'yicha yetarlicha bilim va malakalarga ega emasliklari sababli muayyan qiyinchiliklarga duch keladilar.

Kasb ta'limi fakulteti talabalari ko'proq mashina, mashina detallari va mexanizmlarini, ularning kinematik sxemalarini o'rganishlariga to'g'ri keladi. Talabalarni mashinalarning kinematik sxemalari bilan tanishtirishga katta ahamiyat beriladi, chunki tuzilishi va vazifasi bo'yicha bir-biridan farq qiluvchi mashinalarni umumiy jihatlarini ana shu sxemalar orqali ko'rsatib berish oson bo'ladi.

4a – shakl. Texnik modellashtirish va loyihalash. Kasb ta'limi fakultetlarida texnik modellashtirish va loyihalash usullaridan ko'pincha o'quv ustaxonalaridan foydalaniladi. O'quv ustaxonalarida kasb ta'limi bo'yicha mashg'ulotlarning turli tashkiliy shakl va metodlaridan foydalanish; texnik ma'lumotlar berish; tadqiqotchilik va amaliy faoliyat bo'yicha malaka va ko'nikmalarni shakllantirish ishlarini amalga oshirish; texnik bilimlarni, mehnat usullarini, bajarilgan ishlar sifatini nazorat qilish; estetik did va mehnat madaniyati ko'nikmalarini, mustaqil ishlash qobiliyatini shakllantirish; konstruktorlik-texnologik tasnifdagi ijodiy masalalarni hal qilish, mehnat muhofazasi talablariga rioya etish uchun ma'lum shart-sharoitlar yaratilgan bo'lishi lozim.

Texnik modellashtirishda biror noyob, qimmatbaho, umuman, ko'p mablag' sarflanadigan inshootlar, agregatlar, mashinalarning modeli yaratiladi. Odatda, modelning o'lchamlari asl nusxaga nisbatan ancha kichik bo'ladi va shunga ko'ra undan arzonga tushadi. Model tuzilishi jihatidan aslidan farqlanishi mumkin, lekin uning ishlash jarayonida aslida sodir bo'ladigan fizik hodisalar kuzatilishi kerak.

Texnik modellashtirish jarayoni uchta asosiy bosqich: model yasash uchun texnik hujjatlar (texnik shartlar, chizmalar, texnologiyani) tayyorlash, model yasash va uni sinab ko'rishdan iborat.

Texnikada ishlatiladigan modellar uch turga bo'linadi (2.1-rasm). Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari mustaqil faoliyat yuritishlarida ushbu model turlarini bilishlari talab etiladi.

Geometrik o'lchamlari o'xshash modellar ko'rgazmali qurol maqsadida ishlatiladigan obyektning tashqi ko'rinishini anglatadi. Bunday modellar orqali talabalar zamonaviy mashina, mexanizmlarning tuzilishi, ishlash tartibi bilan tanishtiriladi.

Fizik jihatdan o'xshash modellar o'rganilayotgan obyektning harakat dinamikasi, o'zaro bog'liqligi qonuniyatlari, xususiyatlari va o'xshashliklarini bildiriladi.

Harakatlanishi jihatidan o'xshash modellar tirik mavjudodlar xarakatlari modellashtiriladi. Bu turdagi modellarning tashqi ko'rinishi asliga yaqin

bo'lishini ta'minlash maqsadida ko'p hollarda ular tirik mavjudotlar yoki insonlarga o'xshash qilib yaratiladi.

Talabalarning texnik modellashtirish jarayonidagi faoliyati asosan texnik hujjatlarni ishlab chiqish va model yasashdan iborat bo'ladi. Shuning uchun, eng avvalo talabalarni chizmalarni chizishga, texnologik jarayonni tuzishga, model detallarini tayyorlash va ularni yig'ishga jalb etish uchun qulay modellar yasashni nazarda tutish lozim.

Talabalarga modellashtirishni o'rgatish jarayonida obyektlarni tayyorlash uch bosqichda amalga oshiriladi:

- mukammal texnik hujjatlar bo'yicha;
- qisqartirilgan texnik hujjatlar bo'yicha;
- texnik shartlar yoki o'z shartlari bo'yicha.

Loyihalash bilan shug'ullanish uchun avvalo grafik hamda texnologik bilim va malakaga ega bo'lish kerak. Shuningdek, buyumlarning mustahkamligi, o'lchamining aniqligiga oid murakkab hisoblarni bajarish malakasini egallash zarur.

Talabalar texnik modellashtirish bilan shug'ullanishda buyumlarni loyihalash, tayyorlash va pardoqlash bo'yicha quyidagi ishlarni bajaradilar:

- loyihaladan buyumning vazifasi va qo'llanish usuli bilan tanishish;
- buyumdan foydalanish hamda uni tayyorlash jarayoniga asos bo'ladigan fizik, kimyoviy va boshqa jarayonlarni aniqlashtirish;
- umumtexnik va qo'shimcha adabiyotlarni o'rganish, qo'yilgan vazifani hal qilinishining eng yaxshi variantini tanlashda ulardan foydalanish;
- buyumning bir nechta eskiz variantlarini tayyorlash va ulardan eng yaxshisini tanlash;
- buyumning texnik loyihasini ishlab chiqish;
- buyumga ishlov berish texnologiyasini ishlab chiqish.
- ayrim detallarni, uzellar va umuman buyumni tayyorlash hamda rostlash;
- buyumning kamchiliklarini aniqlash va bartaraf etish;
- buyumni pardoqlash;
- buyumni tayyorlashga doir o'quv-texnik hujjatlarga tuzatishlar kiritish.

Auditoriyadan tashqarida tashkil etiladigan mustaqil ta'lim shakllari mazmuni.

1b – shakl. O'quv adabiyotlari bilan ishlash. Auditoriyadan tashqarida o'quv adabiyoti bilan ishlash mustaqil ta'lim olishning eng asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. O'quv adabiyoti bilan ishlash juda oson va qulay usul hisoblanadi. O'quv adabiyotlari bilan ishlashni barcha ta'lim oluvchilar yaxshi o'zlashtirgan bo'lishlari lozim. O'quv adabiyotlari deganda, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, texnik adabiyotlar, ma'lumotlar yo'riqnomalar va hokazolarni tushunish mumkin.

Haqiqatan ham dars jarayonida darslik, o'quv qo'llanmalar, texnik adabiyotlar bo'yicha materialni mustaqil ravishda o'rganish bo'yicha vaqti-vaqti bilan topshiriqlar berib turilsa, bu albatta talabalarda o'quv adabiyoti bilan ishlash malakasi va ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Talabalarga

darslik bilan mustaqil ishlash bo'yicha haddan tashqari ko'p uyga vazifa yuklatilsa, bu ularni zo'riqishga olib keladi va natijada ularda fanga bo'lgan qiziqish kamayadi. Shuning uchun o'qituvchi darsliklar va boshqa o'quv adabiyotlari bilan ishlash hamda tanishtirish, mustaqil ishlash malakasini va ko'nikmalarini shakllantirish ishlarini hamma bosqichlarida, ya'ni yangi mavzuni tushuntirishda, bilimlarni oshirishda, uy topshiriqlarining bajarilishini tekshirish jarayonida olib borish kerak. Kasb ta'limi yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar quyidagi mustaqil ishlash ko'nikmalarini egallashlari lozim: matnlardan, rasm va ko'rgazmali qurollardan, jadval hamda xaritalardan asosiysini ajratib olish; ma'lumotlarni o'zlashtirishda mantiqiy aloqadorlik va bog'liqliklarni aniqlash; o'rganilayotgan hodisalarni taqqoslash, darsliklarning bir yoki bir necha qismlari bo'yicha umumlashtirish va xulosa chiqarish, mavzu bo'yicha yangi so'zlar va terminlarni izohlash darslik bo'yicha alohida mavzuni o'rganish, darslik matni bo'yicha reja, tezislar tuzish, darslik matnidan foydalanib, texnik masalalar tuzishni, darslikda ko'rsatib o'tilgan tajribalarni bajarish.

Egallangan malaka va ko'nikmalarni darsliklar va boshqa turdagi o'quv adabiyotlari yordamida dars mobaynida, darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quv faoliyatlarini tashkil etish usullari orqali takomillashtirish mumkin.

Talabalar o'quv adabiyoti bilan mustaqil ishlash malakasini yangi bilimlarni egallash yoki ilgari olgan bilimlarini mustahkamlashda qo'llashi mumkin. Bu metoddan foydalanishda talabalarning matndan asosiy bilimlarni ajratish, matn qismlarining o'zaro bog'liqligini aniqlash, jadvallar va rasmlar mazmunini tahlil qilish ko'nikmalarini takomillashtirishga, o'quv qo'llanmalarining ayrim mavzularini mustaqil o'rganishga alohida e'tibor berish kerak.

Talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda o'quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlashni tashkil etish muhim omil hisoblanadi. O'quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlash jarayonida quyidagi tavsiyalarni taklif etamiz:

- avval adabiyotlar mundarijasi bilan tanishib chiqib, qaysi masalalar muhimligini belgilab chiqing;

- har bir masalaga ijodiy yondoshish;

- adabiyotlarni o'qishda quyidagi ishlarni amalga oshiring:

a) asosiy g'oyalarni xotirada yoki qalam bilan belgilab chiqing;

b) fikrlar rivojlanishi isbotlanishi yoki o'z tasdig'ini topishi bayon etilgan masalalarni alohida belgilang, aksincha, agar ularga qarama-qarshi ma'lumotlarga ega bo'lsangiz, bu ikki materialni qiyosiy o'rganing;

v) sizni qiziqtirgan atama, muhim fikrlar bo'yicha kichik izohli lug'atcha tuzib, bu atamalarni tartib bilan yozib boring;

g) yuqorida aytilganlar bo'yicha hisobot tayyorlang;

- juda murakkab manbalar ustida qayta-qayta ishlang. Asosiy tushunchalarni yozib oling;

- to'g'ri tushunganligingiz va o'zlashtirganligingizni nazorat qilish uchun turli mashq hamda vazifalarni bajarib ko'ring.

- asosiy tushunchalar va g'oyalar bo'yicha kichik yon daftarchangizga chizgilar qilib boring.

Talabalarga o'quv adabiyotlaridan konspekt yozib borish murakkab usullardan biri ekanligini va buni bajarish uchun avvalo reja, tezislarni tuzish ko'nikmalarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishlari lozimligini tushuntirish lozim. Buning uchun avval butun matnni o'qib berish, shundan keyin, uni mantiqiy yakunlangan qismlarga ajratish va har birini alohida sarlavha bilan nomlash kerak. Rejaning har bir savolini o'rganilayotgan materialning asosiy qoidalari bilan qisqacha asoslab berish kerak.

O'quv adabiyotlarini o'qishga qo'yiladigan talablar

O'quv adabiyotlarni o'qishga bir qator talablar qo'yiladi. Bu eng avvalo materialni rejali o'qishdir. Mustaqil o'qishda ketma-ketlikka, bir kitobni o'qishdan ikkinchi kitobni o'qishga o'tishda o'zaro bog'liqlik, qiziqtiradigan mavzular bo'yicha bilimlar tizimi asosida rejaga ega bo'lishi kerak. Bir mavzudan boshqasiga o'tib kerakli maqsadga erishish uchun, talaba tomonidan ma'lum ketma-ketlikda o'qishga qaror qilingan kitoblar va maqolalar ro'yxatiga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Kutubxonalarda ma'lum sohalarga oid adabiyotlar ro'yxati mavjud bo'ladi. Kitobxon kutubxona katologlari va kitobdan foydalanish haqidagi qo'llanmalar asosida o'zining shaxsiy rejasini tuzib olishi lozim. Bunday rejani tuzishga maxsus fan o'qituvchilari, kutubxonachilar yordam berishlari mumkin.

Texnik adabiyotni o'rganishning muhim talabi materialni o'rganish ketma-ketligiga e'tibor berish hisoblanadi. Ayrim talabalar diqqatlarini bir mavzu ustiga jamlab olmaydilar. Ular kitob o'qib turgan bo'lsalar-da, xayollari boshqa narsalarda bo'lishi mumkin. Bu holat kitob mazmunini tushunishda qiyinchiliklar tug'diradi. Ayrim talabalar vaqtdan yutish maqsadida matnni o'qib turib, ba'zi so'zlarni, iboralarni o'qimay tashlab ketishadi. Bu sabablar ham materialni to'liq o'zlashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun matnni o'qish jarayonida mavzuning ma'lum qismida to'xtalib, yuqorida o'qilgan material yuzasidan xulosalar chiqarish, savollar qo'yish yoki og'zaki tushunganlarini takrorlash samarali natija beradi. O'qish davrida tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar va savollar daftarda qayd etilishi va lug'atlar, qo'llanmalar hamda mutaxassislar yordamida aniqlab olinishi talab etiladi.

O'quv adabiyotlarini o'qishda takroriy o'qish majburiy shart hisoblanadi. Kitob birinchi marotaba to'liq o'qib chiqilib, takroriy o'qishda yaxshi tushunmagan savollarga e'tibor qaratiladi. Kitob qanchalik diqqat bilan o'qilgan bo'lmasin, baribir, ba'zan juda muhim fikrlar, misollarga yetarli e'tibor berilmay qolishi mumkin. Kitobni takroriy o'qib chiqish mavzudagi asosiy fikrlarni muhim dalillar asosida tushunib olishga yordam beradi.

Mustaqil o'qish jarayonida o'qilgan materiallarga ijodiy, tanqidiy munosabatda bo'lishga o'rganish, olgan bilimlarini o'zining amaliy faoliyatida qo'llashga harakat qilishda juda muhimdir. Bo'lajak kasb ta'limi bakalavr-o'qituvchilarini kasbiy fanlar bo'yicha o'qitish jarayonida o'quv qo'llanmalari bilan ishlash malakalarini takomillashtirish kerak. Bunda talabalarni yangi o'quv

materialini idrok qilishga yaxshi tayyorlash uchun ularga qo‘llanmaning ma‘lum bo‘limini o‘qish vazifa qilib beriladi. Shuningdek, talabalarga qo‘llanma bo‘yicha mehnat obyektlari bilan tanishish va ularni tayyorlash bilan bog‘liq bo‘lgan texnologik jarayonlar tartibi to‘g‘risida o‘ylab ko‘rish topshirig‘ini berish mumkin.

2b – shakl. Nazorat ishlariga tayyorlanish. Imtihonlarga va nazorat ishlariga tayyorlanish jarayoni ham mustaqil ta‘limning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi.

Ta‘lim jarayonida imtihonlar va nazorat ishlari topshirishda talabalardan katta ma‘suliyat talab etiladi. Imtihonlarda va nazorat ishlarida talabalar o‘quv rejasini qanday darajada o‘zlashtirganliklari haqida hisobot beradilar. Talabalar ijobiy baholanishlari uchun nazorat ishlariga o‘z xohishlari asosida mukammal tayyorlanishlari shart. Talaba har bir darsga o‘z vaqtida puxta tayyorlansa ham nazorat ishlaridan oldin, baribir, qayta o‘qishi, o‘qiganlarini umumlashtirishi va tizimlashtirishi lozim.

Imtihonlardan bir-ikki oy avval tayyorgarlikni boshlashlari kerak. Avvalo talaba nazorat ishlari jadvalini aniqlab olishi lozim. Imtihonga tayyorlanish biletlar va nazorat ishi mavzulari asosida olib borilsa, ko‘pgina kamchiliklar vujudga kelishi mumkin. Biletlar asosida tayyorlanish jarayonida mexanik yodlash vujudga keladi va fan asoslarini o‘rganish tizimi buziladi. Turli nazorat ishlari mavzulari asosida tayyorlanish jarayonida esa ko‘pincha bo‘shliqlar paydo bo‘ladi. Bunda ba‘zan eng muhim muammolar chetda qolib ketadi.

Shuning uchun imtihon va nazorat ishlariga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida barcha o‘tilgan mavzularni atroflicha o‘rganish va qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanib, bir qancha tayyorgarlik mashqlarini bajargan holda tayyorlanish maqsadga muvofiqdir.

Takrorlash – bu individual jarayondir. Bu jarayon har bir talabaning o‘zi uchun murakkab bo‘lgan, noaniq, unutilgan mavzularni yana bir karra ko‘zdan kechirishi, asosiy g‘oya va fikrlarni qayta o‘rganishi, bir qancha qiyin mashqlarni bajarish yo‘llarini sinab ko‘rishi asosida tashkil topadi.

Takrorlashga kirishishdan oldin eng qiyin va kamroq o‘zlashtirilgan mavzu yoki bo‘limlarni aniqlab, ularni alohida bir varaqqa yozib olish tavsiya etiladi. Takrorlash jarayonida o‘quv rejasida ko‘rsatilgan materiallarning barchasini (ma‘ruza qaydlari, o‘quv adabiyotdagi ma‘lumotlar, qo‘shimcha o‘qilgan kitobdan qilingan materiallar, maslahatlar, seminar va amaliy mashg‘ulot davomida yozib olingan ma‘lumotlar) yozib olib, ularni tahlil qilish va tizimlashtirish kerak.

Agar talabalar materialni o‘zlari mustaqil o‘rganib chiqmasalar, nazoratchi bilan bo‘ladigan suhbat «umumiy» yoki yuzaki bo‘lib, kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Imtihonlarga va nazorat ishlariga tayyorlanish metodikasiga asosan quyidagilarni taklif etamiz:

- o‘zingizga qulay, tinch ish joyini tanlang;

- qulayroq o'tirib olib, oldingizda toza varaqlar, o'ng tomonga esa daftar va kitoblarni qo'ying. Mazkur mavzuga tegishli bo'lgan hamma masalani eslab oling, tezis va reja ko'rinishida ularni toza varaqning chap tomoniga yozing. So'ngra bularni kitob va ma'ruzalar yordamida tekshirib chiqing va eslay olinmagan masalalarni varaqning o'ng tomoniga yozib chiqing. Shu yerning o'zidayoq o'qituvchiga beriladigan savollarni ham yozib boring. Hech qanday noaniqliklar bo'lmasligi kerak;

- o'z rejangiz asosida ishleng. Faqatgina o'z bilimingizni tekshirish yoki maslahatlashish uchungina sheriklikda ishlashingiz mumkin;

- mavzu bo'yicha javob tayyorlayotgan vaqtingizda asosiy fikrni tezis ko'rinishida belgilab, fakt va raqamlarni ularning isboti sifatida yozib oling. Sizning javobingiz qisqa, mazmunli bo'lishi kerak;

- nazorat tayyorgarligi bilan birgalikda amaliy ko'nikma va malakalarni ham unutmang. Siz matn, xarita va boshqalar bilan ishlay olishingizni namoyon etishingiz kerak;

- kun tartibini va ishlash rejasini belgilab oling;

- o'qituvchining maslahatlarida faqatgina boshqalarning savollariga javob eshitishni emas, balki o'zingizni qiziqtirgan savollarga javob olishga harakat qiling;

- o'z bilimingizga ishonish ruhiy dadillik olib keladi. Ba'zan bittagina savolga tayyorgarlik ko'rmasangiz, aynan o'sha savolga javob berishingizga to'g'ri kelishi mumkin;

- qanday fan bo'lmasin, uni hozirgi zamon texnologiyasi, ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'liqligini unutmang;

- berilishi mumkin bo'lgan savollarga javoblarni kompyuter dasturlari va Internet ma'lumotlari asosida boyitib boring;

- imtihonda savolni olgach, xotirjamlik bilan savollar ustida o'ylab ko'ring, javoblaringiz rejasini tuzing. Xarita, ish uskunalari yoniga boring, qanday qilib bajargan amaliy ishingizni nazariy jihatdan tushuntirib berishni o'ylab ko'ring. Agar ba'zi narsalarni unutgan bo'lsangiz, hayajonlanmang.

3b – shakl. Ma'ruza tayyorlash. Oliy ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonida ta'lim berishning turli shakl va metodlaridan foydalanilmoqda. Ta'limning asosiy shakli esa ma'ruza hisoblanadi. Ma'ruza tayyorlash ancha murakkab va ko'p mehnat talab qiladigan ishdir. Bo'lajak kasb ta'limi bakalavr-o'qituvchilari «Kasb ta'limi metodikasi» fanida, pedagogik amaliyot jarayonida ma'ruza tayyorlashlariga to'g'ri keladi.

Ma'ruza vaqtida ham, har turli amaliy mashg'ulotlarda ham, asosiy e'tibor talabalarning mustaqil fikr yuritishlarini rivojlantirish, bilim va malakalarini oshirishga qaratilgan bo'ladi.

Ma'ruza oliy ta'lim muassasalari auditoriyalarida eng ko'p qo'llanadigan dars shakli hisoblanadi. Ma'ruza–darslik, o'quv qo'llanmalari va boshqa manbalardagi materiallarni qayta bayon qilib berishdan iborat bo'lib qolmasdan, balki o'qituvchining aniq bir soha bo'yicha shaxsiy, ilmiy – pedagogik, ijodiy izlanishlarini ham o'zida jamlashi lozim. Har bir o'qituvchi ma'ruzaga

tayyorlanishda ushbu mavzuga taalluqli bo'lgan ko'pgina materiallarni qamrab olishga harakat qilishi kerak. So'ngra har bir sohaning darslik va qo'llanmalar, monografiya va ilmiy maqolalar, jurnal va gazeta materiallari, tarixiy yozma yodgorliklar va badiiy asarlar, radio va televideniye, Internet kabi aniq materiallar manbalaridan foydalaniladi.

Ma'ruza auditoriyada alohida fanlar bo'yicha o'tkaziladigan umumiy mashg'ulotlarning kamida 50 foizini tashkil etadi. Ba'zi fanlarda esa ma'ruza 60 – 65 foizga borib yetadi. Kasb ta'limi fakultetining barcha yo'nalishlari ishchi o'quv dasturlarini kuzatganimizda ayrim fanlardan ya'ni o'zbek (rus) tili, chet tili, jismoniy tarbiya va sport, kasb ta'limi praktikumi fanlaridan ma'ruza soatlari berilmaganligini, barcha soatlar amaliy mashg'ulot tarzida olib borilishini ko'rishimiz mumkin.

Ma'ruzada bayon etilgan materiallar talabalarning dunyoqarashini kengaytirishi uchun avvalo u qiziqarli, hayotga bog'liq, aniq va ishonchli dalillar bilan boyitishi va zamonaviy ma'ruzaga qo'yiladigan barcha talablarga javob berishi lozim. Ma'ruza mashg'ulotlarida turli odatiy ko'rgazmali qurollar; nazorat varaqalari, sxemalari, jadvallar, modellar, materiallar, xaritalar, zamonaviy ko'rgazmali qurollar; o'quv teleko'rsatuvlar, o'quv kinofilmlar rejalashtirilgan dasturlar, multimedia vositalari, elektron darsliklar, diopozitivlardan foydalanilgan holda olib boriladi. Bunday shakllar qo'llanilganda, talabalar tez charchamaydilar va ularning faolligi saqlanadi.

O'qituvchi ma'ruza o'qish mobaynida talabalarga mavjud materiallarni yetkazish bilan birga, ularga ba'zi vazifalarni berib, kutubxona, laboratoriya va arxivlarda ishlash uchun yo'llanma berishi ham kerak.

4b – shakl. Masofaviy ta'lim texnologiyasi. Masofaviy ta'lim texnologiyasi an'anaviy ta'lim tizimini amalga oshirishda duch kelingan muammolarni hal etish yoki shart–sharoit uni taqozo qilgan holda qo'llaniladi. U ta'lim samaradorligini oshirishga imkon beradi.

«Masofaviy ta'lim» tushunchasi fanga o'tgan asrning 90 – yillarida kirib kelgan. Ingliz tilida «masofaviy ta'lim» (distant education), «Masofadan o'qitish» (distant learning) kabi variantlarda ham qo'llaniladi. Ta'lim jarayonlarini telekommunikatsiyalardan foydalangan holda tashkil etishni esa (tele training) deb yuritiladi.

«Masofaviy ta'lim» tushunchasi ta'lim oluvchiga o'quv axborotlarini masofadan turib yetkazib berishni ta'minlovchi (sun'iy yo'ldosh, televideniye, kompyuter tarmoqlari va boshqalar orqali) yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan maxsus ta'lim xizmatlarini bildiradi.

Masofaviy ta'lim afzalliklari:

- tezkorlik – fazo va vaqt bo'yicha to'siqlarning yo'qligi, yangi dolzarb axborotlarni olish, qaytar aloqa;
- axborot ta'limiy motivlarining ortishi (tarmoqdagi axborotlar);
- kommunikatsion – ta'limning potensial ishtirokchilari sonining ortishi;

- pedagogik – ta’limning yanada ko‘proq motivlashishi, individuallashtirishi, interfaol (ta’lim ishtirokchilari o‘zaro ta’sirining faollanishi, teskari bog‘lanishning mavjudligi) bo‘lishi;

- psixologik - o‘quvchi (talaba)larning o‘z - o‘zini namoyon etishi uchun yanada yaxshiroq hissiy – psixologik sharoitlar yaratilishi, to‘siqlarning bartaraf etilishi;

- iqtisodiy – ta’lim uchun sarf - harajatlarning kamayishi;

- ergonomik - mashg‘ulotlar vaqtining o‘zlashtirish sur‘ati va maqbul grafik bo‘yicha taqsimlanish».

Masofaviy ta’lim jarayonini tashkil etish turli xususiyatlarga asoslangan holda olib boriladi.

1. Ta’lim jarayonini boshqarish xususiyati asosida: bunda mustaqil – individual ta’lim oluvchiga o‘qituvchi - rahbar muntazam maslahat berib turadi. Ta’lim oluvchining bilimi nazorat qilinib testlar, so‘rovnomalar asosida baholab boriladi.

2. Ta’lim jarayoni maqsadga ko‘ra: ushbu turda ta’lim samaradorligiga erishishga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqqan holda o‘quv jarayonlari tashkil qilinadi. Bunda kerakli natijaga erishishda lozim bo‘ladigan barcha jarayonlar mustaqil ta’lim olishga qaratiladi. Masofaviy ta’lim jarayonida egallanishi lozim bo‘lgan barcha ma’lumotlar aniq ifodalanishiga erishish lozim.

3. Masofaviy ta’limning o‘qitish mazmuni asosida: masofaviy ta’limni tashkil etishda foydalaniladigan ta’lim resurslarini tanlash, ularni tahlil etish kabilar asosida tuziladi. Mustaqil ta’lim olishda masofaviy o‘qitishning turli xil darajalari aniqlab chiqiladi. Har bir ta’lim oluvchining ichki shart – sharoiti va imkoniyati darajasidan kelib chiqqan holda mos keluvchi masofaviy o‘qitish darajasi tavsiya etiladi.

4. Masofaviy ta’limni pedagogik texnologiya asosida: masofaviy ta’lim olishda talabalar mustaqil ijodiy, ongli faoliyat bilan shug‘ullanadilar. Ular mustaqil bilim olish jarayonida lozim bo‘ladigan pedagogik texnologiyalar, usullar, vositalardan foydalangan holda ta’lim samaradorligiga erishish uchun barcha imkoniyatlarni ishga soladi. Kerak bo‘lgan hollarda qo‘shimcha materiallar ham yordamchi vosita sifatida tatbiq etiladi.

5. Masofaviy ta’limning tashkil etishda tahliliy yondashuv: talabalarga berilgan materiallarni ular qay darajada o‘zlashtirganligini aniqlash, bu masalaga oid barcha ko‘rsatkichlarni tahlil qilish asosida belgilanadi. Talabalarning berilgan materialni o‘zlashtirishga izchil, tizimli, aniq ketma–ketlik asosida, yetarli shart–sharoitlarni hisobga olgan holda, yondashuvlari nazarda tutiladi. Bunda berilgan ma’lumotlar elementar tarzda, bo‘limlarga bo‘lib o‘rganiladi va har bir bo‘lim bo‘yicha nazorat–tekshiruv ishlarini olib borish yo‘lga qo‘yiladi.

6. Masofaviy ta’limni tashkil qilishda teskari aloqa asosida: ushbu turda olingan ma’lumotlar qayta ishlangan holda ta’lim oluvchi tomonidan qabul qilinadi yoki berilgan manbaga qaytariladi. Umumiy tahlillar asosida ma’lum xulosalar, tushunilmagan ma’lumotlar qayta aloqa asosida jo‘natiladi. Bu

bosqichni amalga oshirish uchun kompyuter texnologiyalaridan foydalanish yaxshi natijalar beradi.

7. Masofaviy ta'limni tashkil etishda nazorat qilish asosida: bunda talabalarning egallagan bilimlarini masofadan turib ma'lum nazorat shakllari va usullari yordamida baholash, olingan natijalarni tahlil qilish asosida kerakli xulosalarga kelish, ushbu natijalar asosida masofaviy ta'lim dasturlariga kerakli o'zlashtirishlar, yangiliklar kiritish ko'zda tutiladi.

Masofaviy ta'lim jarayonining asosini mustaqil ta'lim tashkil qilganligi uchun ham talabalarda ijodiy tafakkur rivojlanib boradi. Masofaviy ta'limda o'quv jarayonining muddati qat'iy belgilanmaydi. Nazorat ishlarini bajarish va javob yo'llashni talaba mustaqil, o'ziga qulay vaqtda bajaradi. Ushbu holat masofaviy ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Masofaviy ta'lim vositalari:

1. Elektron darsliklar.
2. Tarmoq o'quv – metodik qo'llanmalari.
3. Oddiy va multimediali kompyuter ta'limi tizimlari.
4. Audio o'quv – axborot materiallari.
5. Video o'quv – axborot materiallari.
6. Laboratoriya praktikumlari.
7. Uzoq masofadan ulanuvchi trenajyorlar.
8. Uzoq masofadan ulanuvchi ma'lumotlar va bilimlar ba'zasi.
9. Masofadan ulanuvchi elektron kutubxona.
10. Ekspert asosidagi ta'lim tizimi [9].

Masofaviy ta'limni tashkil qilishda bir qancha vositalardan foydalanish mumkin. Ushbu vositalardan amaliy jihatdan foydalanish masofaviy ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Bo'lajak kasb ta'limi bakalavr-o'qituvchilarini tayyorlashda masofaviy ta'lim turlaridan foydalanish keng yo'lga qo'yilmoqda. Maxsus sirtqi bo'lim talabalariga elektron darsliklarni va o'quv manbalarni kompyuter va boshqa zamonaviy vositalar orqali yetkazish, ularga mustaqil ishlashlari uchun topshiriqlarni berish, topshiriqlar bajarilganligini masofadan turib tekshirish ishlari olib borilmoqda

4. Talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish metodikasi

Insoniyat o'z tarixiy taraqqiyoti jarayonida to'plagan ijtimoiy tajribalarini, talabalar, albatta, mustaqil o'quv faoliyati metodlari asosidagina egallab olishlari mumkin bo'ladi. Ko'pgina talabalarining bilim olishda ortda qolishlariga ularning mustaqil ishlash shakl va metodlarini bilmasliklari sabab bo'ladi. Masalan, o'qitish jarayonida talabalarda asta - sekin bilimlarni mustaqil topish, ularni baholash va amaliyotda qo'llash malakasini shakllantirishdan iborat xususiyatlar paydo bo'ladi.

Talabalarda u yoki bu o'quv materialini mustaqil o'rganish malakasini shakllantirish jarayoni - pedagog tomonidan maqsadli tashkil etilgan jarayon va uning nazorati ostida amalga oshiriladi. Aks holda talabalar o'zlarining mustaqil ishlarini boshlang'ich holatda tashkil etishga qiynaladilar.

Ilmiy izlanishlar asosida talabalarining mutaxassis darajasiga erishishlarida auditoriyada va auditoriyadan tashqarida mustaqil ta'lim olish shakllari, metod va vositalari, murakkablik darajasiga ko'ra mustaqil ishlash turlari, mustaqil ishlashning mazmunan izchilligi, mustaqil ishlash natijasida egallanadigan ko'nikma hamda malaka darajalari asosida kasb ta'limi yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan bo'lajak bakalavr-o'qituvchilarni tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish modeli ishlab chiqildi (2.10-rasm). Buning natijasida mustaqil ta'lim jarayonini amalga oshirishning mazmunan ketma-ketligi ilmiy asoslandi. Ushbu modelda talaba oliy ta'lim muassasasiga o'qishga qabul qilingandan so'ng, bakalavr-o'qituvchi sifatida shakllanishi jarayonida talabalarining mustaqil ta'limni tashkil etish asoslari yoritilgan. Modelning asosini tashkil etuvchi mustaqil ta'lim jarayonini amalga oshirishning mazmunan izchilligi talabalarining mustaqil ta'limni tashkil etish, murakkablik darajasiga ko'ra mustaqil ishlash turlari, mustaqil ta'limni boshqarish, mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarining shakllanganlik darajasi mustaqil ta'limni nazorat qilish asoslari bilan tavsiflanadi

«Kasb ta'limi metodikasi» fanidan har bir mavzuga mos holda mustaqil ishlash uchun topshiriqlar majmuasi ham bayon etilgan. Quyida yuqorida keltirilgan manbalar asosida ishlab chiqilgan ikki soatlik dars ishlanmasi tavsiya etilgan.

Dars mavzusi: "Kasb-hunar kolleji o'quv xonalari, laboratoriya xonalari, o'quv ustaxonalariga qo'yiladigan talablar va ularni jihozlash"

Dars maqsadi:

a) **ta'limiy:** talabalarni kasb-hunar kolleji o'quv xonalari, laboratoriya xonalari va o'quv ustaxonalarini jihozlashga qo'yiladigan talablar bilan tanishtirish. Talabalarga kasb-hunar kollejlari o'quv ustaxonalarining tuzilishi haqida ma'lumot berish;

b) **tarbiyaviy:** o'quv ustaxonalarining jihozlari, ularni saqlash tartib-qoidalari, mazkur jihozlarni estetik did bilan joylashtirishni o'rgatish, texnika

xavfsizlik qoidalari, o'qituvchilik faoliyatida e'tibor berilishi zarur bo'lgan tarbiyaviy xususiyatlar bilan tanishtirish;

v) **rivojlantiruvchi:** talabalarning ko'nikma va malakalarini shakllantirish, o'qituvchilik qobiliyatini shakllantirishga oid tushunchalar, ma'lumotlar, ilmiy izlanishga, ijodkorlikka yo'naltirish.

Dars turi: aralash

Dars metodlari: nazariy, ko'rgazmali, aqliy hujum, «guruhlariga bo'lib o'qitish».

Darsning jihozlanishi: ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallar: o'quv ustaxonalarining joylashuv tartibi tushirilgan plakatlar, mavzuga oid adabiyotlar, dars o'tishga oid o'quv-uslubiy qo'llanmalar.

Fanlararo bog'lanish: mashinasozlik yo'nalishidagi mutaxassislik fanlari, materiallarni kesib ishlash, asboblardan va dastgohlar, o'quv ustaxonalarida kasb ta'limi amaliyoti, fizika, pedagogika, pedagogik mahorat, psixologiya, axborot texnologiyalari.

Texnik vositalar: kodoskop, slaydlar

Tarqatma materiallar: nazorat kartochkalari, testlar.

Mashg'ulotning borish tartibi:

1. Tashkiliy qism

a) salomlashish; b) guruhga bo'lish; v) topshiriqlar berish.

2. Asosiy qism

a) guruhlarning mustaqil ijodiy ishlarini tashkil etish.

b) topshiriqni bajarishda o'tilgan manbalarni takrorlash.

v) dam olish daqiqasida «Rolli o'yin» metodi orqali topshiriqni mustahkamlash.

g) olingan natijalarni tahlil qilish.

d) natijalarni mustaqil, ijodiy yondoshgan holda takomillashtirish.

ye) natijalarni boshqa guruh munozarasidan o'tkazish.

yo) bildirilgan fikrlarni muhokama qilish.

3. Yakuniy qism

a) baholash. b) rag'batlantirish.

Boholash mezonlari - balli tizim.

Guruhning natijasi—2 ball;

O'yindagi faollik – 1 ball;

Tanqidiy fikr –1 ball;

Fikr himoyasi –1 ball.

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism (5 daqiqa). Darsga o'qituvchi kirib keladi va talabalar bilan salomlashib, xona tozaligini tekshirib bo'lgach, navbatchini va davomatni aniqlaydi. Talabalardan tabaqalashtirilgan holda «O'quv ustalari», «Laborantlar», «O'qituvchilar» nomli guruhlarini shakllantiradi.

2. Asosiy qism (60 daqiqa).

a) 1. «O'quv ustalari» guruhi mustaqil ishlash malakalarini (o'quv materiallarini o'rganishda va ish jarayonlarini tashkil etishda umumiylikdan

tipiklikni va xususiylikni ajratib olish) shakllantirish maqsadida o'quv ustaxonalarida mavjud asbob-uskunalar, jihoz va moslamalar haqida ma'lumot beradilar. O'quv ustaxonalarida bo'lishi lozim bo'lgan jihozlar ro'yxatini tuzish talab etiladi.

2. «Laborantlar» guruhi mustaqil ishlash malakalarini (mustaqil ish bajarilishi jarayonida texnologik jarayonlarni va texnik obyektlarni tanlash, amallarni bajarish, chizish va sxemalarni tuzish) shakllantirish maqsadida laboratoriya xonalarida bajariladigan ishlar hamda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish asosida laboratoriya xonalariga qo'yiladigan talablarni o'rganish, laboratoriya xonalariga qo'yiladigan talablar ro'yxatini ishlab chiqish talab etiladi.

3. «O'qituvchilar» guruhi mustaqil ishlash malakalarini (auditoriyada, auditoriyadan tashqarida, o'quv ustaxonasida va uyda mustaqil ishlarni samarali tashkil etish) shakllantirish maqsadida o'quv xonalarida o'tiladigan biror dars ishlanmasini ishlab chiqish talab qilinadi. Bunda tanlangan mavzuni bayon etish metodlari, shakllari, tamoyillari asosida dars rejasi ishlab chiqiladi.

b) talabalar berilgan topshiriqlarni bajarish vaqtida yangi mavzuga bog'lagan holda o'tilgan mavzu savollarini takrorlaydilar:

1) kasb-hunar kollejlarning o'quv xonalarida, laboratoriyalarida va o'quv ustaxonalarida tashkil etiladigan kasb ta'limi mashg'ulotlarining qanday tashkiliy shakllarini bilasiz?

2) o'quv xonalarida nazariy mashg'ulotlarning asosiy shakllari asosida darslarni tashkil etish metodikasini yoriting?

3) ishlab chiqarish ta'limining tashkiliy shakllari?

4) ishlab chiqarish korxonalariga sayohat uyushtirish bosqichlarini aytib bering?

Talabalar javoblarini umumlashtirish.

v) talabalar berilgan topshiriqning asosiy qismini bajarib bo'lganlaridan so'ng ularga dam olish daqiqasi beriladi:

Bunda har bir guruh talabalarini guruh nomidan kelib chiqqan holda «Mening kelgusi istiqboldagi rejalarim: Kasbiy taraqqiyot, orzu va umidlar» mavzusida davra suhbat uyushtiradi.

g) olingan natijalar o'qituvchi nazoratidan o'tkaziladi. Natijaning afzalliklari va kamchiliklari haqida o'zaro munozaraga kirishishadi.

d) olingan natijalar «O'quv ustalari» bergan natijalar «Laborantlar» guruhi a'zolari tomonidan; «Laborantlar» guruhi olgan natijalar «O'qituvchilar» guruhi tomonidan; «O'qituvchilar» guruhi olgan natijalar «O'quv ustalari» guruhi a'zolari tomonidan muhokama etiladi. Natijalarga tanqidiy, qarshi fikrlar berish asosida materialni o'rganishda o'z-o'zini nazorat qilish malakasi shakllantiriladi. Asosli, isbotlangan va takomillashtirishga qaratilgan fikr va mulahazalar o'qituvchi tomonidan belgilab boriladi.

ye) har bir guruh o'zining natijalarini qaytarib oladi va aytilgan tanqidiy mulohazalar hamda takliflarga o'z munosabatlarini bildiradilar.

3. Yakuniy qism (10 daqiqa).

a) Barcha guruhning topshiriqlarni bajarish natijalari doskada ko'rsatib boriladi. Topshiriqning to'g'ri va mukammal bajarilganligiga qarab, har bir guruh va talaba baholanadi. Bunda talabalarning mustaqil ishlash malakalarining shakllanganlik darajalariga e'tibor qaratiladi. Mustaqil ishlash malakalarining shakllanganligini aniqlovchi mezonlar keyingi paragrafda mukammal berilgan.

b) Guruhlarning natijalari asosida eng yaxshi guruh va faol talabalar nomi e'lon qilinadi.

Mustaqil ishning asosiy qismining bajarilishi ketma-ketligi va bajarishga ketgan vaqt quyidagicha belgilanadi: guruhlarning mustaqil ijodiy ishlarini tashkil etish – 20 daqiqa; topshiriqni bajarishda o'tilgan manbalarni takrorlash – 5 daqiqa; dam olish daqiqasida «Rolli o'yin» metodi orqali topshiriqni mustahkamlash – 10 daqiqa; olingan natijalarni tahlil qilish – 5 daqiqa; natijalarni mustaqil, ijodiy yondashgan holda takomillashtirish – 5 daqiqa; natijalarni boshqa guruh munozarasidan o'tkazish – 10 daqiqa; bildirilgan fikrlarni muhokama qilish – 5 daqiqa.

Guruhlarga bo'lish jarayonida talabalarning bilim darajasiga e'tibor qaratish kerak, ya'ni talabalarni tabaqalashtirib, guruhlarga ajratish va ularga murakkablik darajasi turlicha bo'lgan bir mavzu yuzasidan topshiriq berilishi kerak. Topshiriq natijalari doskada namoyish etilgan holda e'lon qilinsa-da, talabalarning barchasi mavzuning murakkablik darajasidan qat'iy nazar, mavzu yuzasidan bilimlarga ega bo'ladilar. Bunday tarzda dars olib borish jarayonida guruhdagi barcha talabalar ishtiroki ta'minlanadi va shu bilan ularning har biri baholanadi. Baholash mezonlari topshiriqlarni qay darajada bajarganliklariga qarab, «5», «4», «3», «2» yoki «a'lo», «yaxshi», «qoniqarli», «yomon» ko'rsatgichlar asosida baholanadi. Hozirda talabalarning bilimlarini 100 balli reyting tizimi asosida ham baholash mumkin. Talabalarning bilimi va mustaqil ishlash malakalarining shakllanganlik darajalari 2.2 - jadvalda berilgan.

Mashg'ulot yakunida talabalarga mustaqil bajarib kelishlari uchun uy vazifasi beriladi.

Mavzu: Kasb-hunar kollejlari o'quv ustaxonalarini jihozlash va mashg'ulotlarni tashkil qilish

1. Kasb-hunar kollejlari o'quv ustaxonalarini tashkil etish haqidagi Nizomni tahlil qilish.

2. Kasb-hunar kollejlari o'quv ustaxonalariga qo'yiladigan talablarni o'rganish.

3. Kasb-hunar kollejlari o'quv ustaxonalarida o'qituvchi va o'quvchi ish o'rniga qo'yiladigan talablarni aniqlash.

4. O'quv ustaxonalarida o'quvchilarga kasb-hunar o'rgatish usullarini o'rgangan holda dars ishlanmasi tayyorlash (yo'riqnoma asosida).

Berilgan mustaqil ish topshiriqlari bo'yicha talabalar kelgusi darsga tayyorgarlik ko'rib kelishlari lozim.

XULOSA

Kasb ta'limi yo'nalishi bo'yicha bakalavr-o'qituvchilarni tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish, ularning o'z-o'zini rivojlantirib borish sharoitida faoliyat yuritish jamiyat rivojida asosiy kuch xisoblangan yetuk mutaxassislarni tayyorlash masalasiga ijobiy yondoshuvni talab qiladi. Mustaqil ta'lim olish jarayonini faollashtirish, talabalarda mustaqil ta'lim olishga bo'lgan intilish, mavzuga oid ma'lumotlarni internet orqali izlash, o'qib o'rganish, mustaqil ta'lim olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish zarurligi ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligi tahlil qilindi.

Mustaqil ta'lim talabalarda shaxsiy, kasbiy, individual xususiyatlarni namoyon qilishga; bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga; ularning umumkasbiy hamda maxsus fanlarga oid bilimlarini rejalashtirishga; auditoriyada va auditoriyadan tashqarida olingan bilimlarni tartibga solishga, shuningdek nazorat qilish uchun ongli ravishda foydalana bilishga; ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga asos bo'lishi aniqlandi.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etishda quyidagilarga e'tibor berish lozimligi ilmiy asoslandi: umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo'yicha bilimlarni to'liq o'zlashtirish malakalarini rivojlantirish; umumiy mehnat madaniyatiga oid tarbiya, shuningdek, ijtimoiy foydali kasblar bilan tanishish; talabalarda ijodiy tafakkurni, kasbiy iqtidorni, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va vaqtni qadrlash sifatlarini shakllantirish.

Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda auditoriyada va auditoriyadan tashqarida mustaqil ta'lim olishning samarali shakl va metodlari tanlandi hamda ulardan foydalanishda ta'lim vositalarini qo'llash usullari ishlab chiqildi.

Kasb ta'limi yo'nalishi talabalarining umumkasbiy va mutaxassislik fanlariga mos mashg'ulotlarni tashkil etish hamda ularning mustaqil holda bajarishlari mumkin bo'lgan umumkasbiy ko'nikma, malakalari o'rganib chiqildi. «Kasb ta'limi metodikasi» fani misolida talabalarning mustaqil ishlash malakalarining shakllanganlik darajalarini aniqlash mezonlari ishlab chiqildi.

Blum taksonomiyasi asosida o'quv faoliyatining turli sohalarini qamrab oluvchi quyidagi: kognitiv (bilish), affektiv (hissiy - qadriyatli), psixomotor (harakat)li omillariga to'xtalib o'tildi. Har bir soha bo'yicha kasb ta'limi o'qituvchisini tayyorlashda mustaqil ta'lim jarayonidagi holatlar o'rganib chiqildi. Talabalarning mustaqil ta'limi ularning kasbiy shakllanishida muhim omil ekanligi aniqlandi.

Kasb ta'limi yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan bo'lajak bakalavr-o'qituvchilarning mustaqil ta'limini tashkil etish masalasini nazariy va metodik jihatdan ishlanganlik darajasini oshirish maqsadida quyidagi tavsiyalarga e'tiborni qaratish lozim, deb hisoblaymiz:

1. Kasbiy fanlarni o'qitishda talabalarda mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish samaradorligini oshirish maqsadida modulli tizim asosida mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasini ishlab chiqish.

2. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ishlashlariga imkon beruvchi moddiy-texnik bazani mustahkamlash chora tadbirlarini belgilash.

3. Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish imkonini beruvchi maxsus elektron dasturlar, darslik va qo'llanmalar yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 1992. – 46 b.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq , 1997. – 64 b.
3. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassis – taraqqiyot omili. – T.: O'zbekiston, 1995. – 32 b.
4. «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida»gi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 4 - oktabrdagi 400-sonli qarori.
5. Abdullayeva Q.M. Maxsus fanlarni o'qitishda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari: Diss. ... ped. fan. nom.- Toshkent: 2006. - 182 b.
6. Azizzodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2003 - 174 b.
7. Begimqulov U. Masofaviy o'qitish va pedagogik ta'lim // Pedagogik ta'lim, – Toshkent. 2004. – № 5. – B.19 – 21.
8. Berdiyeva O.B. Geometriya ta'limida o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish metodikasi: Avtoref. dis. ... ped.fan.nom. – T.: TDPU, 2007. – 22b.
9. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi yo'nalishi bakalavrlarini tayyorlashda mustaqil ta'limning ahamiyati // Maktab va hayot. – Toshkent, 2004. - № 1. – B. 18 - 20.
10. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish. Metodik qo'llanma. – T.TDPU, 2006. - 46 b.
11. Tolipova J. Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2002. – № 4. – B. 102 – 103 .
12. Tolipov O'.Q. Talabalar mustaqil ishlarida o'qitish vositalari // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2000. - №1.- B. 45 – 47.
13. Xalilov N. Mustaqil ta'lim shakllari // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2002.- № 5.- B. 88 – 89.
14. Yunusova SH. O'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini shakllantirish // Xalq ta'limi. – Toshkent, 1997. – №5. – B. 53 – 55
15. Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'lim olish jarayonini tashkil etish // Pedagogik ta'lim. – Toshkent, 2008. - №1. – B.152 - 155.
16. Qo'ysinov O.A. Talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish // Kasb-hunar ta'limi. – Toshkent, 2008. -№2. - B.22 - 23.
17. Sayidaxmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. – Toshkent: RTM, 2000. – 46 b.

18. Sayfurov D.M. Kasb- hunar o‘qituvchilari malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimida masofadan o‘qitishning ilmiy-uslubiy asoslari: Avtoref. dis. ... ped. fan. nom. – T.: 2005. – 23 b.
19. Husanboyeva Q.P. Adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning ilmiy-metodik asoslari: Dis. ... ped.fan.dok. – Toshkent: O‘zPFITI, 2004. – 261 b.
20. Sharipov SH. S. Talabalar ixtirochilik ijodkorligini shakllantirishining pedagogik sharoitlari. (Mehnat va kasb ta’limi fakutetlari misolida): Dis. ... ped. fan. nom. – T.: 2000. – 205 b.

<http://www.istedod.uz/>

<http://www.pedagog.uz/>

<http://www.Abduqodirov.pbnet.ru/>

<http://www.disser.h10.ru/pedagog.html>

